

Fransuz tili grammatikasi

GRAMMAIRE DU FRANÇAIS

O'quv qo'llanma morfolo-sintaksis grammatik tartib-qoidalarini oson o'rganish uchun tayyorlangan. O'quv qo'llanma soha o'qituvchilari, universitet talabalari, maktab o'quvchilari va til o'rganishga qiziquvchilar uchun amaliy yordam beradi.



Бобокалонов Рамазон Ражабович Бухоро давлат университетидан 1994 йилдан буён ишлаб келмоқда. Даставвал, Вобкент туман 14-мактаб ўқитувчиси, 30-мактаб директори вазифаларида ишлаган. Кафедра мудири, ундан сўнг факультет раҳбари вазифасида фаолият кўрсатган. Айни кунда Немис ва француз тиллари кафедраси доценти, филология фанлари номзоди.



Globe
EDIT

Fransuz tili grammatikasi

Ramazon Bobokalonov, Muborak Hamidova

Globe
EDIT



Ramazon Bobokalonov · Muborak Hamidova

Fransuz tili grammatikasi GRAMMAIRE DU FRANÇAIS

O'quv qo'llanma

Ramazon Bobokalonov
Muborak Hamidova

Fransuz tili grammatikasi GRAMMAIRE DU FRANÇAIS

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**Ramazon Bobokalonov
Muborak Hamidova**

**Fransuz tili grammatikasi GRAMMAIRE
DU FRANÇAIS**

0'quv qo'llanma

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62990-6

Copyright © Ramazon Bobokalonov, Muborak Hamidova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ramazon Bobokalonov
Muborak Hamidova**

Fransuz tili grammatikasi

O'quv qo'llanma

FOR AUTHOR USE ONLY

2021

Taqrizchilar:

**J. Yakubov, O'zDJTU professori.
M.Jurayeva, BuxDU professori.**

Annotatsiya

O'quv qo'llanma morfolo-sintaksis grammatik tartib-qoidalarini oson o'rganish uchun tayyorlangan. O'quv qo'llanma soha o'qituvchilari, universitet talabalari, maktab o'quvchilari va til o'rganishga qiziquvchilar uchun amaliy yordam beradi.

FOR AUTHOR USE ONLY

MORFOLOGIYA

☼ Règles de grammaire - Grammatik qoidalar



Fransuz tilida soʻz turkumlari

Sintaktik qurilishdagi holatiga koʻra fransuz tili soʻzlari ikki guruhga boʻlinadi:

☺ **Mustaqil soʻzlar** nutqda gapning mustaqil boʻlamlari sifatida qoʻllaniladi. Bular: **ot** [substantif] ; **sifat** [adjectif]; **son** [nom de nombre]; **feʼl** [verbe]; **olmosh** [pronom], **ravish** [adverbe].

☺ **Yordamchi soʻzlar** leksik maʼnoga ega boʻlmasa ham, grammatik vazifa bajaradi. Bular - **article**, **determinativlar** (*otlarning aniqlovchilari*), **feʼl oldi olmoshlari** (*nisbiy olmoshlar*), **predlog va bogʻlovchilar** soʻz va gaplarni oʻzaro munosabatga kirishiga yordam beradi - sintaktik aloqa uchun xizmat qiladi.

🏠 🏠 ☼ **Eslab qoling**: Fransuz tilida egalik sifatleri va nisbiy ravishlar mustaqil soʻzlar sanalmaydi.



♦ Ot - substantif

Ot narsa-buyum, borliqdagi mavjudlik va mavhumlik nomlarini bildiradi. Ot mustaqil soʻz turkumi boʻlib, gapda mustaqil boʻlak vazifasida keladi. Fransuz tilida otning ifodalanishi oʻziga xosdir.

Otning ifodalanishi

☺ **-eu, -eau, -al, ail** qoʻshimchali otlar koʻplikda **-x** oladi: *un cheveu - des cheveux, un tableau - des tableaux*.

Ammo *le bleu - les bleus, l'émou - les émous, l'enjeu - les enjeux, le lieu - les lieux* (baliq) va *le pneu - les pneus* bundan mustasno.

Koʻp otlarning birlikda **-al** qoʻshimcha qismi koʻplikda **-aux** ga oʻzgaradi: *Un canal - des canaux*.

Travail oti koʻplikda travaux shakliga ega boʻladi.

☺ Otlarning koʻpligi.

Otlarning koʻp qismi koʻplikda **-s** qoʻshimchasini qabul qiladi: *la place - les places*.

Ayrim otlar faqat koʻplik shakliga ega : *les cheveux, les yeux*.

Les lunettes (*koʻzoynak*) - **la lunette** (teleskop), **les ciseaux** (*qaychi*)- **le ciseau** (*metal kesgich - pezeu*) soʻzlarining maʼnolari birlik va koʻplikda tamoman oʻzgaradi.

☺ - **aine** ayol jinsiga mansub ot yasovchi qoʻshimcha sonidan ot yasaydi, otning umumiy miqdori maʼnosini anglatadi. Ammo oʻzbek tilida bunday yasama otlar chama songa tengdir: **dix + aine = dizaine** (oʻntacha), **quarante + aine = quarantaine** (qirqtacha). Ot va uning qaysi jinsga mansubligi artikl bilan aniqlashtiriladi.



◆ Artikl - Article

1. Artikl - ko'makchi so'z bo'lib, otning **jins** [*genre*], **son** [*nombre*], **aniqlik** [*défini*] va **noaniqlik** [*indéfini*] kategoriyalarini aniqlaydi.

Ayol jinsiga mansub ot oldida **la** artikli ifodalanadi: **la gare, la place.**

Agar otdan oldin egalik sifatleri, belgilash va ko'rsatish sifatleri qo'llanilsa, artikl ishlatilmaydi: **sa camarade, ma place, chaque personne, cette robe.**

Atoqli otlardan oldin artikl ifodalanmaydi: **Charles, Marthe, Michel.**

☉ **Aniq artikl.** **Le** aniq artikli erkak jinsiga mansub otlar oldida birlikda qo'llaniladi. **la** esa ayol jinsiga mansubdir, har ikki jins uchun ko'plikda **les** artikli qo'llaniladi: **le, la = les.**

Unli yoki **h muet** (o'qilmaydigan **h**) bilan boshlangan so'zlarda har ikkala jins birlikdagi artikllar bir xil qisqaradi: **l'élève = un élève, une élève (m, f), l'heure - une heure (f).**

Aniq artikl predmetning (yoki predmetlar guruhining) to'la ma'nodagi butunlik belgisini ko'rsatadi. Bu artikl qo'llanilish jarayonida yoki matnda so'zlovchining aniq narsa bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bulayotganligini bildiradi. Quyidagilarni ifodalashga xizmat qiladi:

☉ Yakka otlarni ifodalashda: **la terre, la lune, le soleil.**

☉ Nutq jarayonida predmet yolg'iz ishtirok etsa: **Fermez la porte! Ouvrez la fenêtre.**

☉ Predmet (yoki shaxs) to'g'risida oldin ham gap borgan bo'lsa. Qiyoslang: **Une jeune femme traverse la rue. La jeune femme est très belle.**

☉ Umumiylik, umumlashtiruvchilik ma'nosini ifodalagan bo'lsa: **J'aime les livres. Les jeunes filles aiment bavarder.**

☉ Predmetlarning sinfi yoki turkumini ifodalashda: **La chaise a 4 pieds. La rose est une fleur.**

☉ **Noaniq artikl.** Bu artikl quyidagi shakllarga ega:

Un - birlikda, erkak jinsiga mansub.

Une - birlikda, ayol jinsiga mansub.

Des - ko'plikda, har ikkala jins uchun xosdir.

Birlikdagi noaniq artikl lotin sonidan kelib chiqqan bo'lib yakkalik, alohidalik, ko'pdan bir (yolg'iz) ma'nolarini ifodalaydi. Bu ma'nolar hozirgi zamonda ham saqlanib qolgan. Noaniq artikl:

☉ Yolg'izlik ma'nosini ifodalaydi (bunday holatda noaniq artikl "bir" ma'nosiga yaqin): **Il a une soeur et deux frères.** Uning bir singli va ikki akasi bor.

☉ Predmetlardan birini ajratib ko'rsatadi: **C'est une table** – bu - stol (boshqa narsa emas).

☉ Predmetni boshqa turlaridan farqlaydi: **Prenez un taxi** (metro emas).

☉ Ko'plikdagi predmetlarning noaniqligini ifodalaydi: **J'achète des fleurs. Sur la table il y a des livres et des cahiers.**

☉ Nutq vaziyatida yangi holatni anglatadi: **Des jeunes filles traversent la place. Pierre parle à une femme.**

☉ **Artiklning sonlar bilan qo'llanilishi.**

Fransuz tilida oy-sana miqdorini ifodalashda sondan oldin artikl ishlatiladi.

Le deux mai - ikkinchi may. **Le trois septembre** - uchinchi sentabr.

Oyning birinchi kuni uchun **premier** sifati ifodalanadi: *le premier septembre*.

® **Eslab qoling:**

1. **Onze** va **huit** so'zlaridan oldin **le** artikl qisqarmaydi: **Le onze mai, le huit mars**.

2. **Le français** tipidagi ot so'z birikmalari (*le français, l'espagnol* va shu kabi so'zlar fe'lli so'z birikmalarida) odatda artiklsiz ifodalanadi. Chunonchi, **parler** fe'li bilan: **parler français** - fransuzcha gapirmoq, **parler espagnol** - ispancha gapirmoq.

3. Boshqa, masalan, **écrire, lire, traduire, prononcer, dire** fe'llari bilan tuzilgan so'z birikmalarida **en** predlogidan foydalaniladi:

Ecrire en français - fransuzcha yozmoq.

Lire en allemand - nemis tilida o'qimoq.

Traduire en anglais - ingliz tiliga tarjima qilmoq.

® **Bilib oling.**

1. **C'est** iborasidan keyin ot oldida odatda noaniq artikl qo'llaniladi:

Est - ce une chaise? - C'est une chaise.

Agar ot boshqa bir ot bilan aniqlashtirilgan bo'lsa, yoki ot o'z aniqlovchisiga ega bo'lsa, aniq artikl ishlatiladi:

C'est **la** chaise de **Marie**. Ce **n'est pas la** chaise de **Marie**.

2. **à** predlogining aniq artikl bilan qo'shilishi.

Le, les aniq artikllari **à** predlogi bilan tutashadi: **au (à + le)** va **aux (à + les)**

- *Je téléphone au directeur. Je parle aux amis de ma soeur.*

3. Ayol jinsiga mansub **la** aniq artikli **à** predlogi bilan tutashmaydi:

Il va à la gare. Elle va à l'école.

4. Ot-kesim qismida artiklning ifodalanishi.

Agar ot kesim vazifasini bajarayotgan bo'lsa, odatda aniq artikl tushib qoladi, ammo undan oldin sifat ishlatilganda ko'pincha undagi aniqlik ma'nosini noaniq artikl bilan berish mumkin bo'ladi. Qiyoslang:

1. *Sa soeur est actrice.* 2. *Sa soeur est une meilleure actrice.*

☉ **Miqdor bildiruvchi otlar oldida artiklning tushib qolishi.**

Jamlovchi, shuningdek, miqdor bildiruvchi otlar oldida **de** predlogi qo'llanilganda artikl odatda tushib qoladi: *Un groupe de garçons; Un kilo de pommes; Une qinzaine de phrases.*

☉ Ot oldida artikllarning qo'llanmasligi.

Atoqli otlar shahar nomini ifodalasa, artikl qo'llanilmaydi. **Paris, Tachkent, Madrid**. Ammo **le Havre, la Havane, le Caire, la Haye** shahar nomlarida artikl qo'llaniladi.

☉ Miqdor ravishidan keyin artiklning qo'llanmasligi.

Combien, beaucoup, peu, assez, trop ravishlaridan keyin **de** predlogi ishlatiladi va artikl tushib qoladi: *Combien de livres français avez-vous? J'ai beaucoup de livres français.*

® **Eslatma.** **Combien** miqdor bildiruvchi ravish o'zbek tilida (*necha, nechta*) so'roq olmoshi hisoblanadi.

⊙ Otdan oldin artiklning qo'llanilmasligi.

Agar ot shahar aholisi ma'nosini anglatib kelsa (ot-kesim a'zosi bo'lganligi uchun), être fe'lidan keyin artikl tushib qoladi: *L'ami de Daniel est ouzbèque. Claire est Parisienne.*

® **Eslatma:** Milliylik yoki shahar aholisiga mansublik ma'nosini anglatgan otlar bosh harf bilan yoziladi: *Tachkent =Tachkentois.*

⊙ Bo'lishsiz gapda noaniq artiklning tushib qolishi.

Vositasiz to'ldiruvchi bilan fe'ning bolishsiz shakli orasida otdan oldin noaniq artikl ifodalanmaydi. Har ikkala birlikdagi **un, une** va ko'plikdagi **des** noaniq artikllar o'rnida **de** predlogi ishlatiladi:

J'ai un frère, mais je n'ai pas de soeur. Il ne fait pas de fautes dans ses dictées.

⊙ Fan nomini bildiruvchi otlar oldida artiklning tushib qolishi.

Un cours, une leçon, un manuel, un devoir, un professeur, un examen otlaridan keyin fan nomini ifodalagan barcha otlar artiklsiz qo'llaniladi:

Une leçon de musique, un devoir d'anglais, un manuel de géographie, un professeur de russe.

⊙ **Matin** va **soir** otlaridan oldin artiklning tushib qolishi.

Matin va **soir** otlari (o'zbek tilida bular ravish hisoblanadi) artiklsiz qo'llaniladi. **Hier, demain**, shuningdek, **le lendemain** ravishlaridan keyin ham **matin** va **soir** otlari artiklsiz ifodalanadi :

Hier soir - kecha kechqurun.

Le lendemain matin - indiniga ertalab.

Dimanche soir - yakshanba kechqurun.



♦ **Oy va yilni bildiradigan otdan oldin artikl va predlogning ifodalanishi.**

1. Oyni nomlaydigan barcha otlar erkak jinsiga mansubdir. Bunday otlar odatda artiklsiz qo'llaniladi: **Janvier, Février, Mars, Avril, Mai, Juin, Juillet, Août, Septembre, Octobre, Novembre, Décembre.**

Oyni nomlaydigan otning predlog bilan ifodalanishiga e'tibor bering.

En quel mois sommes nous? - Biz qaysi oydamiz?

Nous sommes en novembre. Nous sommes au mois de novembre.

Hozir noyabr (oyi).

Yil fasllari bildiradigan otlarning hammasi erkak jinsiga mansubdir.

Les saisons: l'hiver, le printemps, l'été, l'automne

Bu otlar oldida predlogning ifodalanishiga e'tibor bering.

En hiver, en été, en automne, au printemps

En quelle saison sommes-nous? -Hozir qaysi fasl?

® Bularni eslab qoling: *Bir hafta, ikki hafta, uch hafta* ma'noli tushunchalarni ifodalash uchun fransuz tilida *une semaine, deux semaines, trois semaines* bilan bir qatorda *huit jours, quinze jours, vingt jours* so'z birikmalari ekvivalent ravishda ishlatiladi:

Je veux passer huit jours (une semaine) à la campagne.

Chaque année je passe quinze ou vingt jours (deux ou trois semaines) chez mes parents.

2. Yilning ifodalanishi.

Fransuz tilida yilni ifodalash uchun yildan oldin **en** predlogi qo'llaniladi, ammo yil so'zi ishlatilmaydi: *Biz 1995 yildamiz - Nous sommes en 1995.*

Oy va sana birga ifodalanganda, **en** predlogi ishlatilmaydi. *Aujourd'hui nous sommes le 3 novembre 1995.*

® **Eslatma:** *Qaysi yil? Nechanchi yilda?* singari so'roq gaplarda **année** so'zi ishlatiladi: **En quelle année sommes-nous?**

Uchinchi ming yillik uchun hozirda shunday gapirishadi.

En l'an 2000 (deux mille). **En l'an 2006**(deux mille six).

3. Année – kurs, bosqichning ishlatilishi.

Année so'zi kurs, bosqich ma'nosida qo'llaniladi:

En quelle année êtes-vous? - *Siz nechanchi kursda o'qiyasiz?*

Je suis en première année. Men birinchi kursdaman.

Je suis étudiant de première année. Men birinchi kurs talabasiman.

4. Midi, minuit, l'après-midi.

Midi va **minuit** (soat 12 kunduz va kechqurun) otlari erkak jinsiga mansub bo'lib, gap tarkibida ularning oldida artikl qo'llanilmaydi:

il est midi (précis) - Hozir (aniq) soat 12 (kunduzi).

il est minuit (précis) - Hozir (aniq) soat 12 (kechqurun).

⚡® **Unutmang va eslab qoling: à midi** - tushda, soat 12 (kunduzi)da, **à minuit** - tunda, (kechqurun) soat 12 da. Vaqtni belgilashda soat 12 (kunduzi)dan taxminan o'n to'rtga qadar **l'après-midi** qo'shma otidan foydalaniladi:

Il est une heure (deux heures) de l'après-midi - Hozir tushdan keyin soat bir (soat 2).

Je suis libre cet après-midi - Men kunduzi tushdan keyin bo'shman.

Dans l'après-midi - tushdan so'ng, kunning ikkinchi (qismi) yarmida. Bu ifoda vaqt kunning ikkinchi qismida sodir bo'lishini ta'kidlash uchun qo'llaniladi.

® **Bilib qo'ying:** kechqurun soat 12 dan keyingi vaqtni ifodalashda **le matin** otidan foydalaniladi.

Il est une heure (trois heures) du matin - hozir kech soat bir.



◆ **Olmosh – pronom**

1. Fe'l oldi kishilik olmoshlari (**Pronoms personnels conjoints**).

Fransuz tili kishilik olmoshlarining asosiy xususiyati ularning ikki shaklga egaligidir.

☺ Mustaqil olmoshlar (ularni mustaqil, urg'uli ham deb aytishadi): **moi, toi, soi, lui, nous, vous, eux.**

☺ Fe'l oldi olmoshlari yoki urg'usiz olmoshlar.

Mustaqil urg'uli kishilik olmoshlari fe'lsiz ifodalanadi, to'liqsiz gap vazifasida keladi: *Qui veut répondre? – Moi.*

Fe'l oldi kishilik olmoshlari yordamchi so'z hisoblanadi va ular sintaktik mustaqillikka ega emas.

☺ Fe'l oldi kishilik olmoshlari har doim (bo'lishli va bo'lishsiz gap shaklida) ega vazifasida keladi, shaxs va zamonda tuslangan fe'ldan oldin yonma-yon qo'llanadi. Ularning tuslanayotgan fe'l bilan birga kelishi qat'iydir. Vositali yoki vositasiz to'ldiruvchi olmoshlargina ega va kesim orasida joy olishi mumkin. Shuningdek, ega va kesim orasida faqat nisbiy olmoshlar hamda **ne** bo'lishsizlik yuklamasi ham joylasha oladi:

*Ils **n** étudient **pas** le français.*

*Je **vous** écoute.*

*Nous **y** travaillons.*

So'roq gaplarda ega kesimdan keyinga – inversiya bo'lib ko'chadi:

***Lis-tu** ce journal?*

Vositali va vositasiz to'ldiruvchi olmoshlar egadan keyin va fe'ldan oldin keladi:

*Je **vous** cherche. Il **ne nous** téléphone **pas** souvent.*

*C'est un son difficile, **le** prononcez-vous bien ?*

*Voici votre stylo, **ne le** cherchez **pas** ?*

Buyruq shaklida esa to'ldiruvchi olmosh fe'ldan keyinga ko'chadi va urg'usiz **me** olmoshi urg'uli **moi** shakli bilan almashadi:

*Montrez-**moi** votre devoir!*

☞ ☀ ☞ **Unutmang.** To'ldiruvchi olmosh fe'ldan keyin ifodalanganda ular orasida chiziqcha qo'yiladi. *Donnez-**lui** ce texte! Voici ton cahier, prends-**le**! Accompagnez-**moi**!*

Tableaux des pronoms personnels.

S u j e t	Complément indirect Vositasiz to'ldiruvchi (tushum kelishigida)	Complément direct Vositali to'ldiruvchi (jo'nalish kelishigida)
--	--	--

Singulier

I	Je <i>men</i>	Me <i>meni</i>	Me <i>menga</i>
II	Tu <i>sen</i>	Te <i>seni</i>	Te <i>senga</i>
III	Il <i>u</i>	Le <i>uni</i>	Lui <i>unga</i>
	Elle <i>u</i>	La <i>uni</i>	

Pluriel

I	Nous <i>biz</i>	Nous <i>bizni</i>	Nous <i>bizga</i>
II	Vous <i>siz</i>	Vous <i>sizni</i>	Vous <i>sizga</i>

III	Ils, elles <i>ular</i>	les <i>ularni</i>	Leur <i>ularga</i>
-----	------------------------	-------------------	--------------------

2. *Cela* olmoshi.

Fransuz tilida ayol va erkak jinsidan bo'lak *neutre* - o'rta-neytral jins (har ikkala jinsga betaraf olmosh)ga mansub *cela* olmoshi mavjud. *Cela* olmoshi gapda ega yoki vositali va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Cela ne m'intéresse pas. – Ega.

Je vois cela. – To'ldiruvchi (vositasiz).

Nous parlons de cela. – To'ldiruvchi (vositali).

3. *Le, la, les* to'ldiruvchi olmoshlar.

Nutqda *le, la, les* olmoshlaridan vositasiz to'ldiruvchi sifatida foydalaniladi. Ular doim o'zi tegishli bo'lgan fe'ldan oldin va egadan keyin joylashadi:

Je ferme la fenêtre. - *Je la ferme.*

Paul lit - il ce livre? - *Il ne le lit pas.*

Germaine corrige ses fautes. - *Les corrige-t-elle ?*

Faut-il lire ce texte? - *Il faut le lire.*

Le, la olmoshlari unli bilan boshlanadigan fe'l va o'qilmaydigan «h» muet oldida qisqaradi:

J'écris cette phrase - je l'écris au tableau.

Il achète ce costume - il l'achète.

4. Olmoshlardagi *e caduc* ning tushib qolishi.

Fransuz tilida olmoshlardagi *e caduc* **a, e, i** unililari va o'qilmaydigan “h” muet bilan boshlanadigan so'zlar oldida tushirib qoldiriladi: *c'est, j'aime*. Bu eliziya (elision) hodisasi deb ataladi. Shuningdek, bir bo'g'inli **ce, le, je, me, te, se, que, ne, de** kabi so'zlarda ham *e caduc* tushib qoladi: *L'élève, je n'aime pas*.

5. Noaniq-shaxssiz *on* olmoshi.

Noaniq-shaxssiz on olmoshi kishilik olmoshi o'rnida 3-shaxs birlikda qo'llaniladi. O'zbek tilida bunday olmosh yo'q. Ammo bu ifoda o'zbek tilida majhul nisbatdagi fe'l bilan - shaxssiz gaplarga mos keladi: *On sonne*. Qo'ng'iroq chalinmoqda. *On dit que* - Aytishlaricha, (aytdilarkim)

So'zlashuv uslubida *on* olmoshi xohlagan boshqa shaxsni almashtirishi mumkin.

☺ - *On part?* - ketdikmi? (jo'naymizmi?)

☺ - *Qu'est-ce que vous faites?* (Siz nima qilasiz?)

- *On s'amuse* - Biz vaqtichog'lik qilayapmiz.



◆ Sifat - adjectif

1. Sifatning ifodalanishi.

Sifat o'zi munosabatga kirishadigan otning jins va soni bilan moslashadi.

Le père reste seul - Les pères restent seuls.

La mère reste seule - Les mères restent seules.

Cette jeune fille - ces jeunes filles.

2. Ayol jinsiga mansub sifatlar.

Oxiri o'qilmaydigan **-e** bilan tugallanadigan ayol va erkak jinsiga mansub sifatlar orfografik va fonetik jihatdan bir xil:

Il est **jeune**. Elle est **jeune**.

Ce texte est **difficile**. Cette dictée est **difficile**.

Oxiri unli yoki undosh bilan tugagan erkak jinsiga mansub sifatlar ayol jinsiga xoslanganda faqat yozuvdagina **-e** oladi.

Il reste **seul**. Elle reste **seule**.

Ce cahier est **bleu**. Cette fleur est **bleue**.

☀ Oxiri o'qilmaydigan undosh bilan tugagan erkak jinsiga mansub sifat ayol jinsiga xoslashganda o'qilmaydigan **-e** qabul qiladi va nafaqat orfografik jihatdan, balki fonetik jihatdan ham o'zgaradi (undosh o'qiladi): **gris - grise, prêt - prête**.

☀ Oxiri **-eux** bilan tugagan erkak jinsiga mansub sifatlar, ayol jinsiga xoslanganda **-euse** ga o'zgaradi: **heureux - heureuse, sérieux - sérieuse**.

☀ Oxiri ot bilan tugagan erkak jinsiga mansub sifatlar ayol jinsiga xoslanganda **-ette** ga o'zgaradi va qo'sh undoshning biri o'qiladi: **cadet - cadette**.

Sifatlarning ko'plik shakli oxirida **-s** qo'shiladi: **La jeune fille - les jeunes filles**.

-s yoki **-x** bilan yakunlangan sifatlar ko'plikda erkak jinsida shu xos qo'shimchani saqlab qoladi.

Ce vieux livre - ces vieux livres. Ce cahier gris - ces cahiers gris.

® ☀ **Quyidagi sifatlarga e'tibor bering:**

Singulier

Pluriel

Un livre vert	-	des livres verts
Une fleur bleue	-	des fleurs bleues
Un arbre jeune	-	des arbres jeunes
Un frère cadet	-	des frères cadets
Une sœur cadette	-	des sœurs cadettes

Mais

Singulier

Pluriel

Un camarade français	-	des camarades français
Un costume gris	-	des costumes gris
Un homme heureux	-	des hommes heureux
Un problème principal	-	des problèmes principaux

Mais

Masculin - Feminin

Masculin - Feminin

Jeune	-	Jeune	Cadet	-	Cadette
Léger	-	Legère	Actif	-	Active
Bon	-	Bonne	Heureux	-	Heureuse
Ancien	-	Ancienne	Gros	-	Grosse
Un livre vert	-	Une robe verte			

Attention !

Beau - Bel - Belle
Nouveau - Nouvel - Nouvelle
Vieux - Vieil - Vieille

3. Sifatlarning gapdagi o'ri.

Fransuz tilida aksariyat sifatlar otdan keyin joylashadi.

*Regardez cette fleur **bleue**. Sa soeur **cadette** habite Marseille.*

Ko'p ishlatiladigan sifatlar otdan oldin keladi: Ce **vieux** monsieur, cette **belle** place, mes **jeunes** amis.

4. Sifatlarning ko'pligi : “-al” et “-eau”.

Ko'pgina birlikda –al bilan tugaydigan sifatlar ko'plikda –aux ga o'zgaradi: *Social - sociaux, international - internationaux.*

Beau va **nouveau** sifatleri ko'plikda –x qabul qiladi: **beaux, nouveaux.**

bleu sifati esa, ko'plikda –s oladi: **bleus.**

5. **Tout** noaniq sifat.

Birlikda	Ko'plikda
Erkak jinsiga xos: Tout	Tous
Ayol jinsiga xos: Toute	Toutes

Bu sifat doim ot oldiga keladi, ammo undan keyin artikl saqlanadi va o'zbek tilida **butun, hamma, barcha** olmoshi tarzida tarjima qilinadi:

Tout le texte – *butun matn*, **tous mes amis** – *mening barcha do'stlarim*.

® **Eslab qolling**: Artikl, shuningdek, barcha determinativlar **tout** noaniq sifatidan keyin qo'llaniladi. **Tout** o'zbek tilida birgalik olmoshi deb talqin etiladi.

6. Egalik va ko'rsatish sifatleri:

ma, ta, sa - ayol jinsiga mansub birlikdagi egalik sifatlaridir.

C'est sa place - bu uning o'ri.

Je parle avec ma soeur - Men singlim bilan gaplashyapman.

Ils écrivent à leur mère - Ular onalariga maktub yozmoqda.

☀ Fransuz tilida egalik sifatleri narsa buyum yoki predmetning egasi bilan o'zaro bir shaxsda bo'ladi. O'zbek tilida egalik sifatleri *mening, sening, uning, bizning, sizning, ularning* kabi egalik olmoshlari bilan o'xshashdir. Shuningdek, o'zlik olmoshi “o'z” (*o'zinning, o'zining, o'zining, o'zimizning, o'zingizning*) ham egalik sifatleri bilan mos tarzda tarjima qilinadi: *Je parle à ma soeur* - 1) o'zinning opam bilan gapirayapman - 2) *men opam bilan gaplashayapman.*

☀ Fransuz tilida **egalik sifatleri** xizmatchi so'z hisoblanadi. Ular jins va son kategoriyasiga ega. Shu bilan birga egalik sifatleri 1, 2, 3-shaxs birlik va ko'plik shakllariga ham egadir.

® **Eslab qoling**: Egalik sifatleri o'zi bilan birga kelgan otning jinsi va soniga moslashadi.

Je parle à ma mère.

Nous parlons à notre mère.

Il fait ses études à l'académie.

Ils font leurs études à l'institut.

Ayol jinsiga mansub bo'lgan unli tovush yoki o'qilmaydigan **h muet** bilan boshlanadigan otlar oldida erkak jinsiga xos bo'lgan **mon, ton, son** egalik sifatlarini **ma, ta, sa** o'rniga qo'llash zarurdir: *une école - mon école; une amie - mon amie; une usine - son usine; une habitude - ton habitude.*

☞ ☼ ☞ **Diqqat qiling.** **Son, sa** egalik sifatleri o'zbek tilidagi egalik olmoshiga mos keladi.

Pierre va chez sa mère qui est malade - Piyer onasinikiga borayotir. **Uning** onasi kasal.

Marie écrit à sa mère. Sa mère habite Lille - Mariya o'z onasiga yozayapti. **Uning** onasi Lilda yashaydi.

Egalik sifatleri va kishilik olmoshlari o'zbek tilida fransuz tilidagidan farqli o'laroq qat'iy ifodalanmaydi: *Chaque matin je lis mon journal* - Har ertalab gazeta o'qiyman.

Qarindosh-urug' ma'nosidagi otlar oldida odatda egalik sifatleri ifodalanishi zarurdir. Bu o'zbek tilida egalik qo'shimchasi bilan beriladi. *Je veux téléphoner à ma soeur cadette.* Singlimga telefon qilishni xohlayman.

Birlikda		Ko'plikda	
Ayol jinsiga xos	Erkak insiga xos	Ayol jinsiga xos	Erkak insiga xos
Ma	Mon	Mes	Mes
Ta	Ton	Tes	Tes
Sa	Son	Ses	Ses
Notre	Notre	Nos	Nos
Votre	Votre	Vos	Vos
Leur	Leur	Leurs	Leurs

☞ ☼ ☞ **Unutmang.** Egalik va ko'rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarda ularning o'rnida aniq artikl qo'llaniladi: *J'ai mal à ma tête* emas, balki *J'ai mal à la tête.*

7. Ko'rsatish sifatleri.

Ko'rsatish sifatleri predmetni ajratib ko'rsatish, uchun xizmat qiladi. O'zbek tilida ko'rsatish olmoshiga mos keladi. Ular fransuz tilida nomustaqil bo'lgan xizmatchi so'zlar sanaladi va jins hamda sonda moslashib keladi.

Birlikda

Erkak jinsi uchun

ce, cet

Ayol jinsi uchun

Cette

☞ ☼ ☞ **Unutmang.** Erkak jinsi xos ko'rsatish sifatleri ikkita :

Ko'plikda

Ikkala jins uchun

ces

ces

Ce va cet .

Cet unli va **h muet** bilan boshlanadigan otlar oldida ishlatiladi.

Ce livre - ces livres Cet acteur - ces acteurs

Ammo **h aspiré** (o'qilishi mumkin bo'lgan tovush) dan oldin esa **cet** ishlatilmaydi: *h muet - cet homme h aspiré- ce hamac.*

☉ **Cette** ko'rsatish olmoshi fransuz tilida belgilash sifati hisoblanadi:

Cette robe, cette chaise, cette carte. Cette salle.

☀️ **® Yodingizdan chiqarmang.** Fransuz tilida egalik va belgilash sifatlari alohida so'zlar guruhini tashkil etadi. Ular fransuz grammatikasida umumiy egalik sifatlari nomi bilan yuritiladi. Egalik sifatlari ham artikllar singari otning jins, son ifodasini belgilaydi va otning jins hamda soni bilan moslashadi. Ular asosan, artikl o'rnida qo'llaniladi va har doim ot yoki ot oldida turgan sifatdan oldin ifodalanadi: *cette place, cette grande place, sa veste, sa belle veste - ses belles vestes.*



♦ Ravish-adverbe

1. **-ment** qo'shimchali ravishlar.

Fransuz tilida harakat belgisini ifodalaydigan ravishlar ichida sifatdan **-ment** qo'shimchasi yordamida yasalgan holat (tarz) ravishlari ham bor: **facile**→**facilement** - oson.

-ment qo'shimchasi sifatning ayol jinsida mansub shakliga qo'shilib ravish hosil qiladi.

Sérieux↔**sérieuse**→**sérieusement**. **Gai**↔**gaie**→**gaiement**.

® **Eslab qoling:** Passé composé zamonida ravishlarning o'rni.

Murakkab zamonlarda joy va vaqt bildiradigan ravishlar tuslangan fe'ldan keyin ifodalanadi: Il **m'a écouté attentivement**.

Ammo bir qator **bien, mal, beaucoup, assez, trop, encore, déjà** kabi ravishlar murakkab zamonlarda ko'p hollarda ko'makchi va tuslanuvchi fe'l orasida ifodalanadi:

Avez-vous bien compris cette règle?

Elle n'a pas beaucoup lu cette semaine.

Il a peu travaillé aujourd'hui.

® **Eslab qoling.** Agar **peu, beaucoup, trop, assez, encore** ravishlari o'to'ldiruvchi, ya'ni aniqlovchisiga ega bo'lsa, ularni ko'makchi va tuslanuvchi fe'l orasida ishlatish mutlaqo mumkin emas.

A-t-elle fait beaucoup de fautes?

Elle a lu encore dix pages.

2. Gapda ravishning o'rni.

Ravish, fe'lning aniqlovchisi, oddiy zamonlarda kesimdan keyin o'rnashadi: *Elles s'amusent aussi. Tu travailles trop.*

® **Eslatma.** O'rin ma'nosini ifodalaydigan **y nisbiy** ravishi buyruq shaklidan tashqari fe'ldan oldin keladi:

J'y travaille. Je n'y travaille pas. Travaillez-y!

Ravish gap qurilishida boshqa gap bo'laklaridan oldin turadi: *Il est très gai. Il se lève assez tôt.*

3. Plus ravishi.

Plus ravishi sifat yoki ravish oldida qo'llanilib, qiyosiy daraja ifodalashga xizmat qiladi: **Plus facile** - osonroq (juda oson); **Plus vite** – tezroq (juda tez).

4. très, beaucoup ravishi.

O'zbek tilida **juda** ravishi sifat va ravish oldida (**juda katta, juda tez**), shuningdek, shaklan fe'l bilan birga qo'llaniladi. Fransuz tilida esa **très** sifat va ravish oldidan, **beaucoup** fe'ldan keyin qo'llaniladi.

Très - *Il est très malade.* U juda kasal.

Bien - *Elle danse bien attentivement.* U juda diqqat bilan yaxshi o'ynadi.

Beaucoup - *J'aime beaucoup les romans de Balzac.* Men Balzac romanlarini juda yaxshi ko'raman.

5. Où so'roq ravishi.

Fransuz tilida o'rin-joy ma'nosini bildirgan so'zlar uchun qo'llanadigan **où** so'roq ravishi o'zbek tilida so'roq olmoshi hisoblanadi. Gapda o'rin holiga savol berish uchun xizmat qiladi: **Où faites-vous vos études?** – Siz **qayerda** o'qiyasiz? *Je fais mes études à l'Université.*

6. Où so'roq ravishi bilan qurilgan so'roq gaplarda so'z tartibi

☉ Agar so'roq gapning egasi kishilik olmoshi (birinchi shaxs birlikdan va III guruh fe'llarining asosiy qismidan tashqari) bilan ifodalangan bo'lsa, **où** so'roq ravishidan keyin oddiy inversiya amalga oshiriladi: **Où travailles - tu?**

Eslab qoling: Agar gap 1-shaxs birlikda kishilik olmoshi bilan qurilgan bo'lsa, **où** so'roq ravishidan keyin **est-ce que** so'roq iborasi ham ishtirok etadi va inversiya qilinmaydi.

☉ Agar gapning egasi ot bilan ifodalangan bo'lsa, har ikki inversiya, ya'ni oddiy va murakkab turidan foydalanish mumkin.

Oddiy inversiya: **Où va Pierre?**

Murakkab inversiya: **Où Pierre va-t-il?**

® **Eslab qoling:** Murakkab inversiya ega va vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan so'roq gapdagina amalga oshirilishi shart: **Où Roger achète-t-il ses livres?**

Où so'roq ravishi predlog bilan tutash ishlatilganda so'roq gaplar quyidagi tartibda quriladi: **D'où (qayerdan), où (qayerga) venez-vous?**

7. Quand, comment so'roq ravishlari.

Quand ravishi (o'zbek tilida **qachon** so'roq olmoshi) payt holi so'rog'idir:

Quand revenez-vous de l'usine? - *Je reviens de l'usine à six heures.*

Comment ravishi esa:

☉ Harakatning tarz holi (**qanday**) so'rog'i hisoblanadi:

Comment prononce-t-il ces sons? - U bu tovushlarni **qanday** talaffuz qilyapti?

Il prononce bien ces sons - U bu tovushlarni **yaxshi** talaffuz qilyapti.

☉ Murakkab ot-kesimning sifat bilan ifodalangan qismi uchun so'rog' bo'ladi va o'zbek tilida **qaysi, qanaqa, qanaqasi** tarzida tarjima qilinadi.

Comment est votre chambre? - Ma chambre est **grande** et **claire**.

® **Eslab qoling.** **Quand** va **comment** ravishlari bilan tuzilgan so'roq gaplarda gap tarkibi **où** ravishi bilan qurilgan gaplardagidek bo'ladi.

☉ Oddiy inversiya holatidagi kesim oldidan:

Quand vient-il?

Comment travaillez-vous?

Où vas-tu?

☉ Egasi ot bilan ifodalangan gapdagi kesim oldidan (har ikkala oddiy va murakkab inversiya oldida):

a) Oddiy inversiya.

Quand arrive votre ami?

Comment écrit cet élève?

Où écrit cet élève cette lettre?

b) Murakkab inversiya.

Quand votre ami arrive-t-il?

Comment cet élève écrit-il ses dictées?

Où cet élève écrit-il ses dictées?

® **Eslab qoling:** Agar gapda vositasiz to'ldiruvchili ega yoki hol vazifasidagi so'z ishtirok etgan bo'lsa, murakkab inversiya amalga oshirilishi majburiydir.

Quand votre ami **arrive-t-il de Paris**?

Comment cet élève **écrit-il ses dictées**?

Agar gap I shaxs birlikdagi olmosh bilan ifodalansa, so'roq **est-ce que** iborasi bilan amalga oshiriladi. **Comment est-ce que je prononce ce mot**?

8. **Combien** ravishi bilan boshlanadigan so'roq gaplarda so'z tartibi.

Fransuz tili so'roq gaplari **combien** ravishi yordamida tuzilganda gapning tuzilishi oddiy va ters bo'lishi mumkin.

☉ Agar **combien** ravishi eganing aniqlovchisi vazifasida yoki aniqlovchi vazifasidagi so'zga so'roq bo'lib kelsa, so'roq gaplar tartibi oddiy tarzda tuziladi. **Combien de femmes travaillent dans votre usine**?

☉ Agar **combien** to'ldiruvchining aniqlovchisi vazifasidagi so'zga so'roq berganda, gapda inversiya bo'lishi majburiydir. **Combien de tiroires y a-t-il dans votre bureau? Combien de frères Claire a-t-elle**?

9. **Ci** va **là** ravishlari.

Ci va **là** ravishlari, odatda otdan keyin ifodalaniib, belgilash olmoshlari bilan bir qurshovda keladi. Ular otdan keyin chiziqcha bilan yoziladi.

Ce jour-là tout le monde est dehors. Bu kunda hamma tashqariga chiqadi.

A cette heure-ci tout le monde est occupé. Ayni shu soatda hamma band.

® **Eslab qoling.** **Cinq, six, sept, huit, neuf, dix** miqdor bildiruvchi sonlardagi oxirgi undosh talaffuz etiladi.



◆ **Nisbiy olmosh va ravishlar**

1. En olmoshi.

En olmoshi vositasiz to'lduruvchi o'rnida ishlatilishi mumkin. **En** olmoshi vositasiz to'lduruvchi o'rnidagi noaniq artikl bilan ifodalangan bo'lsa, gapdagi o'zni o'zgartiradi va bo'lishsiz gapda ham predlogdan keyin ifodalangan otni almashtiradi. Bo'lishli gapda *un (une)* artikli saqlanib qolinadi.

as-tu un frere? oui, j'ai un frere. oui, j'en ai un. non, je n'ai pas de frere. non, je n'en ai pas.

avez-vous une montre? oui, j'ai une montre. oui, j'en ai une.

Non, je n'ai pas de montre. Non, je n'en ai pas.

Faites vous des progrès? Oui, je fait des progrès. Oui, j'en fais.

Non, je ne fais pas de progrès. Non, je n'en fais pas.

2. **En** olmoshi miqdor bildiruvchi (ot, ravish, son) so'zni almashtirishi mumkin. Miqdor bildiruvchi so'z javob gapda saqlanib qoladi.

As-tu beaucoup d'amis? Oui, j'ai beaucoup d'amis? Oui, j'en ai beaucoup.

Non, je n'en ai pas beaucoup d'ami.

Non, je n'ai pas beaucoup d'ami

Combien de langues étrangères apprends-tu?

J'apprends deux langues étrangères. - J'en apprends deux.

® **Bilib qo'ying.** **En** har doim fe'ldan oldin qo'llaniladi. Faqat buyruq gaplarda esa fe'ldan keyin ifodalanadi. Qiyoslang:

J'achète des pommes. J'en achète, En achetez-vous?

Combien en achetez-vous? N'en achetez pas? N'en achète pas!

Lekin: *Achetez-en!*

® ☀ **Eslatma:** Buyruq gaplarning ikkinchi shaxs birlik shaklida birinchi guruh fe'llari uchun **s** qo'shib yoziladi va undan keyin **en** olmoshi yoziladi.

N'en achète pas! N'en apporte pas!

Ammo: *Achetez-en! Apportez-en.*

⚡ ☀ ⚡ **Unutmang!** Agar **en** olmoshi infinitiv fe'l bilan aloqador to'ldiruvchini almashtirsa, u infinitifdan oldin qo'llanadi.

Combien de chaises faut-il apporter. Il faut en apporter trois.

(en apporter trois = apporter trois)

3. En va y nisbiy ravishlari

En (u yerdan) va **y** (u yerga) nisbiy ravishlari gapda hol vazifasida kelib, o'rin va yo'nalish ma'nosini ifodalaydi.

Ils y vont - Ular u yerga borishyapti.

Nous en venons - Biz u yerdan kelyapmiz.

® **Bilib oling.** **En** va **y** urg'usiz xizmatchi shakllar hisoblanib, ularni mustaqil qo'llash mumkin emas, ular gapda har doim faqatgina fe'l bilan birga uchraydi.

En gapda **de** predlogi yordamida ifodalangan o'rin holi o'rnida ishlatiladi.

Vous venez de l'université? - Oui, j'en viens (en = de l'université).

Y gapda **à, dans, sur, sous** predloglari yordamida ifodalangan o'rin holi o'rnida ishlatiladi.

Ton stylo est sur la table - Non, il n'y est pas (y = sur la table).

Allez-vous chaque jour à l'université?

Oui, j'y vais chaque jour (y = à l'Université)

☞ ☀ ☞ **Unutmang.** **En** va **y** ravishlari har doim fe'ldan oldin, faqatgina buyruq maylida fe'llardan keyin ifodalalanadi.

Elle en revient demain. Y allez-vous souvent?

Je n'y vais pas souvent. N'y allez pas!

N'y entrez pas! N'y reviens pas.

Ammo Allez-y vite! Entrez-y! Reviens-en trop vite!

® **Eslatma.** Birinchi guruh fe'llari shuningdek **aller** fe'li buyruq mayli shakli **en** va **y** ravishlari ishtirok etgan gaplarda **-s** qo'shimchasini saqlab qoladi.

N'y va pas! Vas-y!

N'y regarde pas! Regardes- y!

N'en rentre pas tard! Rentres-en vite!

Agar **en** va **y** nisbiy ravishlari holni almashtirishda infinitif fe'l bilan aloqador bo'lsa, ularni infinitif fe'ldan oldin qo'yish kerak.

Quand pensez-vous aller à la campagne? Nous pensons y aller demain (y aller = aller à la campagne).



♦ **Predlog**

(préposition)

1. à va de predloglari

☉ **à** predlogi jo'nalish kelishigiga mosdir. **De** predlogi esa **à** predlogiga antonim bo'lib, chiqish kelishigiga to'g'ri keladi. Qiyoslang:

Ils arrivent à Boukhara. Ils arrivent de Boukhara.

Je vais à la gare. Je viens de la gare.

☉ Masofani ifodalovchi **à** predlogi qaysidir nuqtadan boshlanuvchi masofani yoki o'rin holini belgilashga xizmat qilishi mumkin. Bu predlog o'zbek tilida jo'nalish kelishigida to'g'ri keladi yoki ba'zan masofa bildiruvchi so'zga teng bo'ladi.

Bourges se trouve de Paris à quelques kilomètres - Burj Parijdan bir necha kilometr uzoq masofada.

® **Eslab qoling:** *A deux pas d'ici - buyerdan ikki qadam narida.*

A trois heures de marche - uch soatlik masofada.

A cent kilomètres de la ville - Shahardan yuz kilometr narida (uzoqlikda).

2. à predlogi.

à - predlogi turli xil munosabatlarni ifodalaydi va fransuz tilida eng faol predlog hisoblanadi.

☉ **à** predlogi maydon munosabatini ifodalashga xizmat qiladi (*joy, yo'nalish ma'nosi*).

*Marie va à la gare. Mariya temir yo'l bekati**ga** bormoqda.*

L'exercice est à la page six - Mashq oltinchi sahifada.

☉ Predlog **à** vaqt munosabatlarini ham ifodalaydi.

*Il déjeune à six heures - u soat 6 **da** ovqatlanadi.*

☺ Predlog **á** o'zbek tilida yo'nalish ma'nosini anglatadi.

Ils écrivent á leur mère – ular o'z onalariga xat yozayapti.

☺ Predlog **à** grammatik munosabat ifodalaydi, o'zaro birgalik ma'nosini bildiradi.

Claire parle à sa mère – Kler onasiga gapiryapti.

3. **de** predlogi.

De predlogi o'zbek tilidagi qaratgich kelishigi ma'nosi bilan mos keladi:

Le cahier de ma soeur - Opamning daftari.

Le directeur de la fabrique - fabrikaning direktori.

4. **de** predlogi bilan artiklning qo'shilishi.

Le, les artikllari o'zidan oldin turgan **de** predlogi bilan qo'shilib, tutash artikl **du** ni hosil qiladi: **du** - (*de+le*) va **des** - (*de+les*). *Les livres du professeur. Les livres des élèves*

Ayol jinsiga mansub **la** va qisqargan **l'** artikllari **de** predlogi bilan tutashmaydi.

Les livres de la petite fille.

5. sur, dans o'rin predloglari. *la place, le boulevard, l'avenue, la rue, l'île* otlaridan oldin predloglarning qo'llanilishiga e'tibor bering: **sur** *la place, sur le boulevard, sur l'avenue, dans la rue, dans l'île.*

Il sont dans la rue (sur le boulevard) - Ular ko'cha (bulvar)da.

Ils marchent dans la rue (sur le boulevard). – Ular ko'cha (bulvar) bo'ylab yurishmoqda.

6. **Jusqu'à** predlogi.

Mazkur predlog vaqt va masofa munosabatlarini bildiradi, boshqa predloglar bilan, asosan **à** predlogi bilan birikib keladi. **Jusque** predlogining ifodalanishiga e'tibor bering.

Jusqu'ici. Jusque chez eux. Jusqu'à Paris. Jusqu'à tôt. Jusqu'à la ville. Jusqu'au métro. Jusqu'aux dernières pages.

7. En, à predloglari jug'rofiy nomlar oldida. Mamlakat (qit'a, region, hudud...) nomlarini bildiradigan ayol jinsiga mansub otlar, shuningdek, unli harf bilan boshlanadigan erkak jinsiga mansub otlar oldida **en** predlogi ishlatiladi. **en** predlogidan keyin artikl tushib qoladi.

Je vous envoie en Suisse; en Irak. Je fais mes études en France.

Undosh bilan boshlangan erkak jinsida mansub otlar oldida **à** predlogi qo'llaniladi: *Je vais au Japon. Il fait ses études au Canada.*

® **Eslab qoling** : *Bu yili (shu yili, shu yilda), bu qishda, bu hafta (da)* kabi so'z birikmalari fransuz tilida predlogsiz qo'llaniladi: **Cette année, cette semaine, cet hiver, cet été; ce printemps, cet automne.**

8. **Avec + ot**

Avec predlogi har doim otdan oldin ifodalanadi va fikrning ajralib turishini ko'rsatadi. O'zbek tilida bu ifoda tarz holiga to'g'ri keladi:

avec attention - diqqat bilan

avec joie – quvonch bilan

Bu birikuvda ot artiklsiz qo'llanadi. Agar ot aniqlovchisiga ega bo'lsa, u noaniq artikl bilan ifodalanadi:

Avec une grande joie- katta quvonch bilan.



◆ Ibora va gap qurilmalari

(Les expressions et la construction des phrases)

1. C'est iborasi.

C'est iborasi belgilash olmoshi va **être** fe'li bilan shakllangan tarkibli kesimlikdir. **Ce** – **bu** ko'rsatish olmoshi **être** fe'lining 3-shaxs birlikdagi **est** shakli bilan birikkan: **Ce** dagi **e kaduk** o'zidan keyingi unli bilan boshlanganda **est** oldida qisqaradi, **c'est** ning so'roq shakli esa olmosh bilan fe'ning o'rni almashishidan hosil bo'ladi. **C'est** ning ko'pligi **ce sont** dir.

1) *Est -ce ta robe? C'est ma robe.*

2) *C'est ma chaise - ce sont mes chaises.*

3) *C'est une table - Ce sont des tables.*

4) *Ce n'est pas une table - Ce ne sont pas des tables.*

5) *Est -ce une table? - Est-ce que ce sont des tables?*

Ce sont konstruksiyasining so'roq shakli **est-ce que** iborasi bilan shakllanadi: *Est -ce que ce sont des crayons?*

2. Shaxssiz **il est** iborasi.

Vaqtini ifodalash uchun fransuz tilida **il est** iborasidan foydalanishadi. **Il** olmoshi gapning egasi sifatida biron shaxs ma'nosini bildirmaydi.

Il est dix heures – Soat 10.

3. Shaxssiz **il y a** iborasi.

Il y a iborasi **il** kishilik olmoshi, **avoir** fe'lining 3-shaxs birlik shakli va **y** ravish ko'makchisidan hosil bo'lgan. Shaxssiz **il y a** iborasi bir yoki bir necha predmetlar mavjudligini ko'rsatishga xizmat qiladi:

Sur la table il y a un cahier. Sur la table il y a des cahiers.

O'zbek tilida **il y a** iborasi "**bor**", "**mavjud**", "**turibdi**", singari ma'nolarini beradi, va **être** fe'lga o'xshab fe'l-bog'lama vazifasini bajaradi.

Qui est - ce qu'il y a sur ce livre? Bu kitob ustida nima turibdi.

Sur ce livre il y a un stylo. Kitob ustida ruchka turibdi

® **Bilib qo'ying:** **Il y a** shaxssiz iborasi o'rin holidan keyin yoki gap boshida turishi mumkin. *Il y a des livres sur cette étagère. Sur cette étagère il y a des livres.*

So'roq gapda esa har doim gapning boshida turadi: *Y a-t-il des livres sur cette étagère.*

⚡ ☀ ⚡ **Unutmang:** **Il y a** iborasidan keyin ot oldida odatda noaniq artikl qo'llaniladi. *Sur la table il y a un cahier. Sur cette place il y a des magasins.* Bo'lishsiz gapda noaniq artikl tushib qolib, uning o'rnida ot oldida **de** predlogi ifodalanadi: *Sur la table il n'y a pas de cahier. Sur cette place il n'y a pas de magasins.*

® **Eslatma:** "**Être**" fe'li va **il y a** iborasining gapda ifodalanishiga alohida e'tibor berish kerak.

Portrait stolning ustida- Le portrait est sur la table.

Stolning ustida portret turibdi. Sur la table il y a un portrait.

4. *On voit, on entend* iboralari.

Voir va *entendre* fe'llari uchinchi shaxsdagi noaniq *on* olmoshi bilan birga *ko'rinadiki, eshitaladi* ma'nolari tarzida o'zbek tiliga tarjima qilinadi. O'zbek tilida bunday predikatif qurilishli konstruktivni modallashayotgan (kirish) so'z-gaplar deyish mumkin. Ammo ba'zi gap qurilishida bunday iboralar o'zbek tilida shaxsi umumlashgan gaplarga ham teng keladi.

🕒🕒 Qiyoslang:

De tous côtés, on entend des rires et des chansons.	On entend qu'il reste encore deux jours à Paris.
Har tarafdin kulgi va qo'shiqlar eshitaladi.	Eshitilishicha, u yana 2 kun Parijda qolmoqchi.
Dans le magasin on voit toutes choses nécessaires.	On voit qu'elle est malade.
Magazinda barcha zarur narsalarni ko'rish mumkin.	Ko'rinishiga qaraganda, u kasal.

5. *C'est ... qui, ce sont... qui* iboralari.

C'est... qui, ce sont... qui ajratib ko'rsatuvchi iboralardir. *C'est ...* iborasi barcha shaxs va sondagi egani ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Ammo faqatgina III shaxsdagi ko'plik bundan mustasno hisoblanadi va uning o'rnida *ce sont... que* ishlatiladi.

C'est...qui, ce sont... qui iborasi bilan shakllangan gaplar odatda fransuz nutqida juda faoldir. Shu sababga ko'ra gaplarning tarjimasida jiddiy farq seziladi.

☺ *C'est ma mère qui rentre toujours la première* - Bu mening onam kim birinchi keladi (Birinchi keladigan bu mening onamdin).

☺ *Ce sont mes parents qui occupent cette chambre* - Bu xonani mening ota-onam egallagan (*Xonani egallaganlar bu - mening ota onam*).

C'est... qui, ce sont ... qui iboralari ishtirok etgan gaplarda ajralib ko'rsatilgan egalar kesim bilan shaxs va sonda moslashadi.

C'est vous qui allez faire le reportage, n'est-ce pas? – Reportajni yozadigan bu siz bo'lasiz, shunday emasmi?



◆ Fe'l zamonlari

Présent de l'Indicatif

(Hozirgi zamon)

Présent de l'Indicatif ish-harakatning nutq momentida bajarilayotganligini bildiradi: *Nous **apprenons** le français. A huit heures moins cinq les enfants **se rangent** par deux dedant la porte et l'on **pass**e l'inspection des mains* (P. Gamarra).



◆ **Présent de l'Indicatif** ning yasalishi

Présent de l'Indicatif zamoni fe'l o'zagiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

I guruh fe'llari uchun

I shaxs -e -ons

II shaxs -es -ez

III shaxs -e -ent

II guruh fe'llari uchun

I shaxs -is -issons

II shaxs -is -issez

III shaxs -it -issent

III guruh fe'llari uchun

I shaxs -s -ons

II shaxs -s -ez

III shaxs -t(d) -ent



◆ I guruh fe'llarining **Présent de l'Indicatif** da tuslanish shakli

Fransuz tilida fe'llar 3 guruhga bo'linadi. Eng katta guruhni birinchi guruh fe'llari tashkil etadi va bu guruh fe'llari - **er** qo'shimchaga ega: *parler - gapirmoq*. Hozirgi zamonda I guruh fe'llari quyidagi qo'shimchalarni -**er** o'rnida qabul qiladi:

Birlikda: -e, -es, -e.

Ko'plikda: -ons, -ez, -ent.

⊗ **Ⓐ** Aniq nisbatdagi *parler - gapirmoq* va *se laver* (o'zlik fe'li) - *yuvimmoq* I guruh fe'llarining hozirgi zamonda tuslanishiga e'tibor qiling.

parler - gapirmoq

Bo'lishli shakl

Je parle

Tu parles

Il (elle) parle

Nous parlons

Vous parlez

Ils (elles) parlent

Bo'lishsiz shakl

Je ne parle pas
Tu ne parles pas
Elle ne parle pas
Nous ne parlons pas
Vous ne parlez pas
Ils(elles) ne parlent pas

So'roq shakli

Parles-tu?	Est-ce que je parle?
Parle-t- il?	Est-ce que tu parles?
Parle-t-elle?	Est-ce qu' elle parle?
Parlons-nous?	Est-ce qu'il parle?
Parlez-vous?	Est-ce que nous parlons?
Parlent-ils?	Est-ce que vous parlez?
Parlent -elles?	Est-ce qu'ils (elles) parlent?

se laver (o'zlik fe'li) - **yuvimmoq**

Birlik

<i>je me lav-e</i>	<i>nous nous lav-ons</i>
<i>tu te lav-es</i>	<i>vous vous lav-ez</i>
<i>il se lav-e</i>	<i>ils se lav-ent</i>
<i>elle se lav-e</i>	<i>elle parl-ent</i>



♦ I guruh fe'llarining buyruq mayli

Fransuz tilida buyruq mayli II shaxs birlik va I va II shaxs ko'plikdagi shakllarga ega bo'ladi. Birinchi guruh fe'llari buyruq maylida **-e**, **-ons**, **-ez** qo'shimchalarini qabul qiladi: **Parle! Parlons! Parlez!**

☞☞☞ **Unutmang:** Buyruq shaklida ikkinchi shaxs birlikda **-s** qo'shimchasi tushib qoladi. Buyruq shaklidagi fe'llar 2-shaxs birlikda **-es** o'rnida **-e**, ko'plikda esa **-ez** oladi : **Parle! Gapir! Parlez! Gaping!**

Ammo **Parles-y!**



♦ **-cer, -ger, -guer** qo'shimchali I guruh fe'llari.

-cer qo'shimchasi bilan tugaydigan fe'llar tarkibidagi **c** dan keyin **a** va **o** kelsa, u **ç** (**ç cedille**) tarzida yoziladi va **s** deb o'qiladi: **Prononcer-prononçons.**

-ger qo'shimchali fe'llarda **g** dan keyin **a** va **o** kelsa, undan keyin **e** harfi yoziladi: **corriger - nous corrigeons.**

-guer qo'shimchali fe'llarda **u** harfi o'zak tarkibida qoladi: **conjuguer = je conjugue, nous conjuguons**

☺ **“répéter”** tipidagi fe'llar quyidagicha tuslanadi: **se lever - turmoq**

Présent de l'Indicatif da		Impératif
Je me lève	nous nous levons	lève- toi!
Tu te lèves	vous vous levez	levons- nous!
Il se lève	ils se lèvent	levez- vous!

® **Eslab qoling.** Ko'pgina oxirgi bo'g'inidan oldingi bo'gini e (e caduc) bilan tugaydigan I guruh fe'llari urg'u olishi sabab è ga o'zgaradi: **il se promène, ils achètent.**

Biroq tarkibida **-eler, -eter** bo'lgan, chunonchi **jeter, appeler** kabi bir qator fe'llarda undosh ortliriladi va urguli bo'gin ochiq talaffuz etiladi: **j'appelle, je jette.**



♦ **II guruh fe'llarining Présent de l'Indicatif da tuslanishi**

II guruh fe'llariga infinitivi **-ir** qo'shimchasi bilan tugaydigan fe'llar kiradi. Bu guruh fe'llarining asosiy belgisi hozirgi zamon ko'plikda **-iss** qo'shimchasining qabul qilishidadir va bu boshqa zamon uchun ham negiz bo'lib xizmat qiladi.

II guruh fe'llarining qo'shimchalari

I **-is**

II **-is**

III **-it**

© **Finir**-tugatmoq

Je *finis* Nous *finissons*

Tu *finis* Nous *finissez*

Il *finit* Ils *finissent*

Impératif: Finis! Finissons! Finissez!

® **Bilib oling.** Bular II guruh fe'llariga mansub:

Finir - tugatmoq, tugamoq; **Bâtir** - qurmoq; **Applaudir** - qarsak chalmoq; **Choisir** - tanlamoq; **Réunir** - jamlamoq, yig'moq, birlashmoq; **Grandir** - o'smoq; **Rougir** - qizarmoq; **Remplir** - to'ldirmoq; **Réflechir** - o'ylamoq, fikrlamoq, o'ylab qolmoq.

© **se réjouir** (II guruh o'zlik fe'li) - qizarmoq, uyalmoq

Birlik Ko'plik

je me réjou-is nous *nous réjou-issons*

tu te réjou-is vous *vous réjou-issez*

il se réjou-it ils *se réjou-issent*

elle se réjou-it elles *se réjou-issent*



♦ **III guruh fe'llari**

III guruhga mansub fe'llarning ko'p qismi III shaxs birlikda talaffuz etilmaydigan **ǃ** qo'shimchasi bilan yakunlanadi: **il li(t) ; il fai(t) ; il écri(t).**

III shaxs ko'plikda fe'llardagi **-ent** qo'shimchasi ham o'qilmaydi: **elles lis(ent), elles écriv(ent).**

Birinchi guruh fe'llari hozirgi zamon birlikda **-e** qo'shimchasini qabul qiladi: **je parle, j'achète.**

III guruhga mansub ko'pgina fe'llar birinchi shaxs birlikda **-s** qo'shimchasiga ega bo'ladi. **je lis, j'écris, je pars, je fais.**

Bu guruhga mansub fe'llar infinitivi **-ir, -oir, -re** bilan yakunlanadi. Kelib chiqishi lotin tiliga mansub bo'lgani uchun fe'llarning tuslanishi **arxaik** shakl

kasb etadi. Hozirgi fransuz tilida bu xildagi fe'llar yasalmaydi. Ularning asosiy belgisi fe'l o'zaginging o'zgarishidadir.

☉ To'liq va noto'liq o'zak o'zgarishi:

je réponds nous répondons ;

je lis nous lisons

☉ Urg'uli va urg'usiz o'zak o'zgarishi:

Nous prenons - Ils prennent

Ba'zi fe'llarda har ikkala holat uchraydi: *Je viens* (to'liqsiz urg'uli o'zak); *Ils viennent* (to'liq urg'uli o'zak) *Nous venons* (urg'usiz o'zak).



◆ III guruhdagi nutqda faol fe'llarning tuslanishiga e'tibor bering.

☉ **Avoir** – ega bo'lmoq

J'*ai* Nous *avons*

Tu *as* Vous *avez*

Il *a* Ils *ont*

Buyruq shakli: *Aie ! Ayons ! Ayez !*

Avoir fe'li yordamida qurilgan gaplar I shaxs birlikda **est-ce que** va ikkinchi shaxs birlikda inversiya bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Est-ce que j'ai? Ai-je?

Est-ce que tu as? As-tu?

Etre – bo'lmoq

Je *suis* Nous *sommes*

Tu *es* Vous *êtes*

Il *est* Ils *sont*

Buyruq shakli: **Sois! Soyons! Soyez!**

® **Eslatma:** être fe'lining so'roq gap shakli **est-ce que** va inversiya yordamida ham tuzilishi mumkun. **Est-ce que je suis? Suis-je?**

☉ **Aller - bormoq**

Je *vais* Nous *allons*

Tu *vas* Vous *allez*

Il *va* Ils *vont*

Buyruq shakli: **Vas! Allons! Allez**

☉ **Venir - kelmoq**

Je *viens* Nous *venons*

Tu *viens* Vous *venez*

Il *vient* Ils *viennent*

Buyruq shakli: **Viens! Venons! Venez!**

☉ **Faire – bajarmoq**

Je **fais** Nous **faisons**

Tu **fais** Vous **faites**

Il **fait** Ils **font**

Elle **fait** Elles **font**

Buyruq shakli: Fais! Faisons! Faites!

☉ Prendre – *olmoq*

Je **prends** Nous **prenons**

Tu **prends** Vous **prenez**

Il, elle **prend** Ils, elles **prennent**

Buyruq shakli: Prends! Prenons! Prenez!

☉ Mettre – *qo'ymoq*

Je **mets** Nous **mettons**

Tu **mets** Vous **mettez**

Il, elle **met** Ils, elles **mettent**

Buyruq shakli: Mets! Mettons! Mettez!

☉ Savoir – *bilmoq*

Je **sais** Nous **savons**

Tu **sais** Vous **savez**

Il, elle **sait** Ils, elles **savent**

Impératif: Sache! Sachons! Sachez!

☉ **Courir** (III guruh fe'li) – *chopmoq*

je cour –**s** nous cour –**ons**

tu cour –**s** vous cour –**ez**

il cour –**t** ils cour –**ent**

elle cour –**t** elles cour –**ent**

☉ **se rendre** (III guruh o'zlik fe'li) - *qaytarmoq*

je **me** rend – **s** tu **te** rend – **s**

il **se** rend-

elle **se** rend -

nous **nous** rend-**ons**

vous **vous** rend -**ez**

ils se rend -**ent**

elles **se** rend –**ent**

® **Eslatma:** Bo'lishsiz shaklda odatda **pas** inkor yuklamasi qismi tusib qoladi (**que** ifodalanganda **pas** ning tushib qolishi majburiydir).

Je **ne** sais **que** faire. Men *nima* qilishni bilmayman.

Je **ne** sais **où** aller. Men *qayerga* borishni bilmayman.

Je **ne** sais **à qui** parler. Men *kimga* gapirishni bilmayman.

Je **ne** sais **comment** l'expliquer. Men uni *qanday* tushuntirishni bilmayman.



◆ **Présent de l'Indicatif** ning qo'lanilishi

Présent de l'Indicatif (hozirgi zamon) quyidagi hollarda qo'llaniladi:

☉ Ish-harakatning nutq momentida bajarilayotganligini ifodalash uchun:

On sonne - Qo'ng'iroq chalinyapti.

La leçon commence - Dars boshlanyapti.

☉ Ish-harakatning davom etayotganligi yoki takrorlanayotganini ifodalash uchun: **Chaque matin je fais de la gymnastique.** Har kuni ertalab men gimnastika bilan shug'uillanaman.

☉ Ish-harakatning doimiyligini ifodalash uchun:

Le soleil se lève à l'Orient. Quyosh Sharqdan chiqadi.

☉ Yaqin-kelasi ish-harakatni ifodalash uchun:

Nous partons ce soir. Biz kechqurun jo'naymiz.

☉ **Si** (agar) bog'loqchisidan keyin sodir bo'ladigan Ish-harakatni ifodalash uchun:

S'il pleut, nous resterons chez nous. Yomg'ir yog'sa, uyda qolamiz.

Présent de l'Indicatif o'tgan zamonlardagi **Passé simple** yoki **Passé composé** o'rni qo'llanilishi mumkin.

Bunda **Présent** ning qo'llanilishi stilistik usul bo'lib, buni **le présent de narration** deyiladi:

L'écrivain français Pierre Gamarra est né en 1919. Instituteur d'après sa shakltion, il devient journaliste après la libération. Plus tard il est secrétaire de rédaction et chroniqueur littéraire.



◆ **Fe'llarning buyruq mayli**

(Mode impératif)

Buyruq mayli buyruq, taqiq (man qilish), iltimos, kengashish yoki ish-harakatni bajarishga undash kabi ma'nolarni anglatadi. Fransuz tilida buyruq mayli **Présent de l'Indicatif** dagi ikkinchi shaxs birlik, birinchi va ikkinchi shaxs ko'plikdagi fe'ldan yasaladi. Buyruq mayli yasalganda kishilik olmoshi hamda birinchi va ba'zi uchinchi guruh (**ouvrir, aller, envoyer** kabi) fe'llarining II shaxs birlikdagi -s ko'shimchasi tushirib qoldiriladi:

Indicatif

Impératif

Tu **fermes** la porte - **Ferme** la porte!

Nous **fermons** la porte - **Fermons** la porte.

Vous **fermez** la porte - **Fermez** la porte!

Tu **ouvres** la chambre - **Ouvre** la chambre!

Tu **vas** à la maison - **Va** à la maison!

Tu **envoies** la lettre. - **Envoie** la lettre!

® **Eslatma:** y va **en** nisbiy olmoshlari oldida qo'llangan birinchi guruh va ba'zi uchinchi guruh fe'llari **Impératif** ning ikkinchi shaxs birlik shaklida -s ko'shimchasini saqlab qoladi:

Vas-y vite! - U yerga tezroq bor!

Envoies-en! - Bundan jo'nat! Bundan yubor!

Noto'g'ri tuslanuvchi quyidagi fe'llar buyruq maylida alohida shaklga egadir:

Avoir – *Aie! Ayons! Ayez!*

Etre - *Sois! Soyons! Soyez!*

Savoir - *Sache! Sachons! Sachez!*

Vouloir - *Veuille! Veillons! Veuillez!*

☉ Buyruq maylining bo'lishsiz shaklida **ne** yuklamasi fe'ldan oldin, **pas** esa fe'ldan keyin qo'yiladi:

Ne ferme pas!

Ne finis pas!

N'oublie **pas** cette règle!

N'oublions **pas** cette règle!

N'oubliez **pas** cette règle!

☉ **Pronominal fe'llarning** buyruq maylini yasashda to'ldiruvchi olmosh ishlatiladi. Buyruq maylining bo'lishli shaklida, to'ldiruvchi olmosh fe'ldan keyin kelib, *te, nous, vous* olmoshlari o'rniga *toi, nous, vous* urg'uli kishilik olmoshlari qo'llaniladi: Tu **te** lèves.- *Lève-toi!* Nous **nous** levons. - *Levons-nous!* Vous **vous** levez.- *Levez-vous!*

Buyruq maylining bo'lishsiz shaklida to'ldiruvchi olmosh fe'ldan oldin qo'yiladi:

Ne te lève **pas!** **Ne nous** levons **pas!** **Ne vous** levez **pas!**

☉ buyruqni **Subjonctif** (istak mayli) ham ifodalashi mumkin:

Qu'il entre! *Kirsin!*

Qu'ils traduisent cette phrase! *Bu gapni tarjima qilishsin!*

☉ **vouloir** fe'liniig **Présent** dagi so'roq shakli orqali ham buyruq ifodalanishi mumkin. Ammo bunda buyirish ottenkasi yumshaladi.

Masalan: Voulez-vous lire! - Marhamat, o'qing!



♦ **Présent de l'indicatif** ning muhim jihatlari.

1. Bu zamonda ikkinchi shaxs ko'plikda barcha fe'llar **-ez** qo'shimchasini qabul qiladi. Masalan: *Vous parlez, vous lisez.* Faqatgina **dire, être, faire** fe'llari bu goidadan mustasno: *Vous dites, Vous êtes, Vous faites.*

2. Fe'ning bo'lishsiz shakli.

Fransuz tilida fe'llarning bo'lishsiz shakli **ne... pas** inkor yuklamasi bilan hosil qilinadi. **Ne** yuklama qismi fe'ldan oldin, **pas** esa fe'ldan keyin ifodalanadi.

Bo'lishli shakl	Bo'lishsiz shakl
je travaille	je ne travaille pas
ils aiment	ils n' aiment pas
répétez!	ne répétez pas!

3. I va III guruh fe'llarining hozirgi zamon ikkinchi shaxs birlik shakli.

I guruh fe'llarining ikkinchi shaxs birlik shakli hozirgi zamonda **-es** qo'shimchasini qabul qiladi. *Tu étudies, tu parles, tu regardes.*

III guruhdagi ko'p fe'llar ikkinchi shaxs birlikda hozirgi zamonda **-s** oladi :
Tu dis, tu lis, tu ris, tu mets.

4. Shaxssiz fe'llar.

Fransuz tilida faqat III shaxs birlikda ifodalanadigan shaxssiz fe'llar ham mavjud. Bu fe'llar tuslanganda gapning egasi shaxssiz hisoblanib, u aniq shaxs yoki predmet haqidagi tushunchani anglatmaydi. Bunday shaxssiz fe'llar o'zbek tilida egali yoki egasiz gap tarzida bo'lib, kesimlik so'zlariga tengdir: ***il faut... - kerak*** (kesimli so'z, bog'lama). ***il pleut*** - Yomg'ir yog'ayotir (egasi noma'lum, shaxssiz gap, bir bosh bo'lakli).

Ba'zi fe'llar, jumladan, ***faire*** fe'li ***il*** shaxssiz olmoshi va sifatlar bilan bir qurshovda, iqlimga xoslashgan shaxssiz iboralar hosil qiladi: ***il fait chaud*** — *havo issiq*, ***il fait beau*** — *havo yaxshi*, ***il fait froid*** — *havo sovuq*.

5. re - fe'l old qo'shimchasi.

re - fe'l oldi qo'shimchasi ish harakatning takroriyligini ifodalaydi, o'zbek tilida alohida so'zlar - ***qaytib, yana*** ekvivalent bo'la oladi.

voir - *ko'rmoq* - ***revoir*** - *qaytib (qayta) ko'rmoq*.

lire - *o'qimoq* - ***relire*** - *qayta (yana) o'qimoq*.

® Eslab qoling.

1) **re** - bilan hamma fe'llarni yasash mumkin emas.

2) hamma fe'llar ham **re** - fe'l oldi qo'shimchasini qabul qilib, takroriylik ma'nosini ifodalayvermaydi.



◆ Olmoshli fe'llar

(Verbes pronominaux)

Aksariyat fransuz tilidagi o'timli va o'timsiz fe'llar olmosh shakliga ega bo'ladi. Olmoshli fe'llar fe'l oldi qo'sh olmoshga ega bo'ladi. Ularning biri ega vazifasida, ikkinchisi vositali yoki vositasiz to'ldiruvchi o'rnida ifodalanadi.

Je me lave (me - vositasiz to'ldiruvchi), Je me lave les mains (me - vositali to'ldiruvchi.)

☉ To'ldiruvchi-olmosh vazifasidagi I va II shaxs birlikda, shuningdek, ko'plikda *me, te, nous, vous* olmoshlari qo'llaniladi.

Je me lave; tu te laves; il se lave, nous nous lavons; vous vous lavez, ils se lavent.

☉ Ko'plik va birlikda - har ikkala uchinchi shaxsda va infinitif shaklda *se* o'zlik olmoshi qo'llaniladi: *se laver – il se lave; ils se lavent.*

☉ To'ldiruvchi-olmosh shaxs va sonda moslashadi: *Je me promène; nous nous reposons.*

☉ To'ldiruvchi-olmosh bevosita fe'ldan oldin ifodalanadi: *Je me lave; tu ne te lave pas; se lave-t-il?*

Faqat buyruq bo'lishli shaklda to'ldiruvchi-olmosh fe'ldan keyin keladi. Shunisi muhimki, ikkinchi shaxs birlikda urg'usiz ***te*** olmoshi o'rnida urg'uli ***toi*** ishlatiladi. *Arrête-toi ici! Levez-vous vite!*

Agar gapda olmoshli fe'l noaniq-infinitiv shaklda bo'lsa, u ega bilan shaxs va sonda moslashadi: **Je dois me lever à sept heures. Allons nous promener.**



◆ O'zbek tilida olmoshli fe'llarning ko'p qismi o'timsiz fe'lga to'g'ri keladi:

s'intéresser - qiziqmoq.

s'arrêter - to'xtamoq

Forme affirmative

Je **m'**arrête

nous **nous** arrêtons

Tu **t'**arrêtes

vous **vous** arrêtez

Il **s'**arrête

ils **s'**arrêtent

Forme négative

Je **ne m'**arrête **pas**

Tu **ne t'**arrêtes **pas**

Il **ne s'**arrête **pas**

Nous **ne nous** arrêtons **pas**

Vous **ne vous** arrêtez **pas**

Ils **ne s'**arrêtent **pas**.

Forme interrogative

Est-ce que je m'arrête?

T'arrête-tu?

S'arrête-t-il?

Nous arrêtons-nous?

Vous arrêtez-vous?

S'arrêtent-ils?

Impératif Arrête-**toi!** Arrêtons-**nous!** Arrêtez-**vous!**

Forme négative

Ne t'arrête **pas!** **Ne nous** arrêtons **pas!** **Ne vous** arrêtez **pas!**

O'zbek tilidagi mazmunan o'timli va o'timsiz f'ellar fransuz tilidagi olmoshli f'ellardan farq qiladi. Qiyoslaymiz:



◆ **Olmoshli** (o'zbek tilida mazmunan o'timli) **fe'llar**:

Se lever - turmoq, se promener - sayr qilmoq,

Se reposer - dam olmoq, se passer - o'tmoq

® **Olmoshli fe'llarni eslab qoling!**

s'installer - joylashmoq

se trouver - turmoq

se diriger vers-tomonga yo'nalmoq

s'appeler - nomlanmoq

se rencontrer - uchrashmoq

se baigner - cho'milmoq

se réunir - to'planmoq, kengashmoq

se dépêcher (de) - shoshilmoq

s'adresser à - murojaat qilmoq

se promener - sayr qilmoq
se lever - turmoq
se coucher - uxlamq, mizg'imoq
se reveiller - uyg'onmoq
se laver - yuvinmoq
s'essuyer - artmoq
se raser - soqol olmoq
se peigner - taramoq (soch)
s'habiller - kiyinmoq
se déshabiller - sug'urmoq
s'entraîner - mashq qilmoq
se tromper - xato qilmoq
se reposer - dam olmoq
se voir - uchrashmoq
s'approcher (de) - yaqinlashmoq
se préparer (à) - tayorlanmoq
s'amuser - ko'ngil xushlamq
se composer (de) - iborat bo'lmoq
s'excuser - uzr so'ramoq.



◆ **Olmshsiz** (o'zbek tilida mazmunan o'timli) **fe'llar**

Commencer – boshlamq

Descendre - tushmoq

Monter - chiqmoq

Devenir - bo'lmoq

Tâcher - harakat qilmoq

Durer - davom etmoq

Finir - tugatmoq

Rester - qolmoq

Revenir – qaytmoq

Rentrer-qaytmoq



◆ **Passé composé** - Murakkab o'tgan zamon

L'indicatif (aniq mayl) beshta o'tgan zamon shakliga ega: ikkita oddiy, uchta murakkab. Murakkab zamonlar **avoir** va **être** yordamchi fe'llari bilan yasaladi. **Passé composé** ham shu turkumda kiradi va hozirgi zamon bilan aloqador tugallangan, gapirilib turgan paytdan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni bildiradi. **Passé composé** tugal o'tgan ish-harakatni anglatib, o'zbek tilidagi o'tgan zamon aniq fe'lga mos keladi. Bu zamon suhbatda, ko'chirma gaplarda, gazeta xabarlar va xat bayonlarida qo'llaniladi:

As-tu vu ce film? Oui, je l'ai vu. Il a dit: Hier nos amis sont arrivés à Tachkent.

Ma chère amie, j'ai passé mes examens et bientôt je veux revenir dans ma ville natale.



♦ *Passé composé* ning yasalishi

Passé composé murakkab zamonini yasash uchun **avoir** yoki **être** ko'makchi fe'llari **Présent de l'Indicatif** da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lining o'tgan zamon sifatdosh **Participé passé** shakli olinadi:

J'**ai lu** ce livre. Men bu kitobni o'qidim.

Elle **est entrée** à l'Institut. U institutga kirdi.

Elle **est née** à Tachkent. U Toshkrntda tug'ilgan.

Ils **sont revenus** de Paris. Ular Parijgan qaytdilar.

● *Etre* yordamchi fe'li bilan tuslanadigan fe'llar:

entrer-kirmoq monter-chiqmoq

sortir-chiqmoq descendre-tushmoq

aller-bormoq naître-tug'ilmoq

venir-kelmoq mourir-o'lmoq

arriver-kelmoq tomber-yiqilmoq

partir-jo'namoq rester-qolmoq

rentrer-qaytmoq devenir-bo'lmoq

revenir-qaytib kelmoq

● Shunindek, barcha olmoshli fe'llar ham **être** bilan tuslanadi: Nous *nous sommes bien reposés*. Elle *s'est vite lavée*.

Qolqan hamma fe'llar, jumladan **être** fe'li ham, **avoir** yordamchi fe'li bilan tuslanadi.

● Majhul darajadagi fe'llar

Forme passive - Passif shakl :

Cette exposition **a été ouverte** au Musée des Beaux Arts.

Les lettres **ont été envoyées** par avion.

● Agar o'timsiz fe'l o'timli fe'l tarzida qo'llansa, **avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslanadi.

O'timli:

J'ai sorti mes livres. Men kitoblarimni chiqardim.

Nous **avons descendu** nos bagages. Bizlar yuklarimizni tushirdik.

O'timsiz:

Je **suis sorti** de la classe. Men sinfdan chiqdim.

Nous **sommes descendus** à l'hôtel. Biz mehmonxonaga tushdik.



♦ O'tgan zamon sifatdoshlarining yasalishi

(formation du passé composé)

● Fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi birinchi guruh fe'l o'zagiga **-é**, ikkinchi guruh fe'l o'zagiga **-i** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. .

Il **a fermé** la porte. Nous **avons fini** ce travail. **Corrigé** fe'l shakli **corriger** fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi (participe passé) dir. Masalan: fermer-**fermé**, finir-**fini**.

● Fransuz tilida fe'l tizimi shakllarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Negaki tizimdagi har bir fe'l shaklida fe'l zamonlarining aniq harakat

holati o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shular ichida asosan, **o'tgan zamon** fe'l shakli ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

☺ **Passé composé** so'zlashuv, yozma, shuningdek, ilmiy-adabiy uslublar va muallif bayonida qo'llaniladi.

J'ai répété ma question — Men savolimni takrorladim.

Il n'a pas vu ce film — U bu filmni ko'rmadi.

☺ Ta'kidlanganidek, Passé composé **avoir** va **être** yordamchi fe'llarining hozirgi zamonda tushlangan shakllaridan biriga tushlanuvchi fe'lning **participe passé** (sifatdosh) shaklini qo'shish bilan hosil qilinadi.

☺☺☺ **Dastlab shuni bilish kerak!** Fransuz tili fe'llari uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruh fe'llarining **participe passé** si - é qo'shimchasi bilan yakunlanadi: **Parler-parlé, marcher-marché.**

Ikkinchi guruh fe'llarining **participe passé** si - i qo'shimchasi bilan yakunlanadi. **Finir-fini; choisir-choisi.**

Uchinchi guruh fe'llarining **participe passé** shakli o'zak qismi bilan bogliq bo'lgan turli xil qoshimchalarda ega. Quyidagi fe'llar **participe passé** sini eslab qoling.

<i>Faire – fait</i>	<i>Savoir-su</i>
<i>Dire – dit</i>	<i>Lire-lu</i>
<i>Prendre – pris</i>	<i>Connaitre-connu</i>
<i>Mettre – mis</i>	<i>Devoir-dû</i>
<i>Ecrire – écrit</i>	<i>Voir-vu</i>
<i>Sortir – sorti</i>	<i>Répondre-répondu</i>
<i>Partir – parti</i>	<i>Venir-venu</i>
<i>Suivre – suivi</i>	<i>Tenir-tenu</i>
<i>Vouloir - voulu</i>	<i>Pouvoir-pu</i>
<i>Vivre – vécu</i>	<i>Mourir-mort</i>
<i>Aller – allé</i>	<i>Traduire-traduit</i>
<i>Construire - construit</i>	<i>Etre-été</i>
<i>Naître – né</i>	<i>Avoir-eu</i>



♦ **Sifatdoshlarning ega bilan moslashuvi**

(*Accord du participe passé avec le sujet*).

Fe'llarning **participe passé** si **être** ko'makchi fe'li bilan o'tgan zamonda tushlanganda eganing jinsi va soni bilan moslashadi: **Nous sommes entrés dans la salle. Mes soeurs sont déjà arrivées.**

☺☺☺ **Unutmang.** Agar II shaxs birlik o'rniga hurmat ma'nosida ko'plik shakldan foydalanilsa, **participe passé** ko'plikda yozilmaydi:

Marie, quand êtes-vous arrivée à Tashkent?

Victor, quand êtes-vous parti pour Paris?



♦ **To'ldiruvchi kishilik olmoshlari**

To'ldiruvchi kishilik olmoshlari ko'makchi fe'ldan oldin keladi: *il l'a parlé, il ne lui a pas parlé; leur a-t-il écrit?*

To'ldiruvchi olmosh ayol jinsiga mansub tushunchani ifodalasa, **avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslangan *participe passé* bilan jins va sonda moslashadi :

*J'ai lu **une lettre** - je l'ai lue*

*Il a apporté **des lettres** - il les a apportées.*



◆ O'tgan zamon sifatdoshining moslashuvi

⊗ **Eslab qoling:** I guruh fe'llarining *participe passé* shaklida - **é**, II guruh fe'llarining *participe passé* shaklida - **i** qo'shimchasi ifodalanadi: *Parler-parlé; choisir-choisi.*

Participe passé ko'p hollarda otning aniqlovchisi bo'lib undan keyin keladi va ot bilan jins hamda sonda moslashadi: *Le professeur rend aux étudiants les devoirs corrigés. Ce sont des livres réunis par mon père.*

● **Avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi (*Participe passé*) gapdagi ega bilan jins va sonda moslashmaydi.

Masalan: *J'ai écrit une lettre. Nous avons écrit une lettre.*

Ammo **avoir** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi fe'ldan oldin vositasiz to'ldiruvchi kelsa, bu fe'llarning *Participe passé* shakli vositasiz to'ldiruvchining jins va soniga qarab o'zaro moslashadi. *Participe passé* moslashganda ayol jinsi uchun **-e**, ko'plik uchun **-s** harflari qo'shiladi. Masalan:

As-tu reçu mes lettres? Oui, je les ai reçues. J'ai lu la revue que tu m'avais donnée. Quelles fautes avez-vous faites dans votre dictée?

● **Etre** ko'makchi fe'li bilan tuslanuvchi fe'llarning *Participe passé* shakli eganing jins va soniga qarab o'zaro moslashadi.

Masalan: *Elle est venue la première.*

Nous sommes arrivés à temps.

La réunion a été organisée dans une grande salle.

● Pronominal fe'llarning *Participe passé* shakli fe'ldan oldin kelgan vositasiz to'ldiruvchi olmoshning jins va soni hamda ega bilan moslashadi:

Elle s'est lavée très vite. Nous nous sommes souvenus de cette histoire.

Fe'llarning *Passé composé* zamonida tuslanish namunalari:

⊙ **Finir** II guruh (tugatmoq) fe'li.

j'ai **fini**

tu as **fini**

il a **fini**

nous avons **fini**

vous avez **fini**

ils ont **fini**

elle a **fini**

elles ont **fini**

⊙ **Lire** III guruh (o'qimoq) fe'li.

j'ai **lu**

tu as **lu**

il a **lu**
elle a **lu**
nous avons **lu**
vous avez **lu**
ils ont **lu**
elles ont **lu**

☺ **Parler** (gapirmoq) I g. fe'li.

j'ai parlé
tu as parlé
il a parlé
elle a parlé
nous avons parlé
vous avez parlé
ils ont parlé
elles ont parlé

☺ **Arriver** (kelmoq) I g. fe'li.

je suis arrivé(e)	nous sommes arrivé(e)s
tu es arrivé(e)	vous êtes arrivé(e)s
il est arrivé	ils sont arrivés
elle est arrivée	elles sont arrivées

☺ **Se reposer** (hordiq chiqarmoq) I g. o'zlik fe'li

<i>je me suis reposé(e)</i>	<i>nous nous sommes reposé(e)s</i>
<i>tu t'es reposé(e)</i>	<i>vous vous êtes reposé(e)s</i>
<i>il s'est reposé</i>	<i>ils se sont reposés</i>
<i>elle s'est reposée</i>	<i>elles se sont reposées</i>



◆ **Passé composé zamonining bo'lishsiz shakli**

Passé composé zamonining bo'lishsiz shaklini hosil qilish uchun yordamchi fe'l oldidan ne yuklamasi, undan keyin esa pas yuklamasi qo'yilib, so'ngra asosiy tuslanuvchi fe'lning **Participe passé** shakli qo'yiladi.

Je n'ai pas encore appris cette poésie.

Elles ne sont pas restées longtemps à la campagne.



◆ **Passé composé zanonining so'roq shakli**

1. Darak gap oldiga *est-ce que* iborasini qo'yish bilan so'roq gap tuziladi.

Est-ce que so'roq iborasi yordamida tuzilgan so'roq gaplarda so'z tartibi o'zgaraydi:

***Est-ce que** je suis venu à temps?*

***Est-ce que** tu es venu à temps?*

***Est-ce qu'il** est venu à temps?*

***Est-ce qu'elle** est venue à temps?*

Est-ce que nous sommes venus à temps?

Est-ce que vous êtes venus temps?

Est-ce qu'ils sont venus à temps?

Est-ce qu'elles sont venues à temps?

2. Inversiya yo'li bilan so'roq gap tuziladi.

☀ Inversiya yo'li bilan tuzilgan so'roq gaplarning egasi kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, ko'makchi fe'l egadan oldin, **Participe passé** esa egadan keyin keladi:

Suis-je venu?

Es-tu venu ?

Est-il venu ?

Est-elle venue ?

Sommes-nous venus ? Êtes-vous venus ?

Sont-ils venus ?

Sont-elles venues ?

☀ Inversiya yo'li bilan tuzilgan so'roq gaplarning egasi ot bilan ifodalangan bo'lsa, ko'makchi fe'l egadan keyin qo'yiladi. So'ngra shu eganing jins va sonini belgilovchi kishilik olmoshi, undan so'ng esa asosiy tuslanuvchi fe'lning **Participe passé** shakli keladi:

Akbar a-t-il **lu** ce livre ? Nazira a-t-elle **lu** ce livre ?

Les élèves **ont-ils lu** ce livre ?



♦ **Passé composé** zamonining bo'lishsiz so'roq shakli.

1. *Est-ce que so'roq* iborasi yordamida tuzilgan so'roq gaplarning bo'lishsiz shaklida **ne** yuklamasi ko'makchi fe'ldan oldin, **pas** yuklamasi ko'makchi fe'ldan keyin, so'ngra esa asosiy tuslanuvchi fe'lning **Participe passé** shakli qo'llaniladi:

Est-ce que je ne suis pas venu à temps ? -Est-ce que Nazira n'est pas venue à temps ?

2. a) Egasi kishilik olmoshi bilan ifodalangan so'roq gaplarniig bo'lishsiz so'roq shaklida so'z tartibi quyidagicha:

N'avez-vous pas compris vos fautes ?

b) Egasi ot bilan ifodalangan so'roq gaplarning bo'lishsiz shaklida so'z tartibi quyidagicha: Nazira n'a-t-elle **pas lu** ce livre ?



♦ **Passé composé ning qo'llanilishi**

Passé composé quyidagi hollarda qo'llaniladi:

☉ ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilganligini ifodalashda:

Il comprend le français; il l' a étudié à l'école. U fransuz tilini tushunadi, u uni maktabda o'rgangan.

☉ Nutq tugagan paytni va ketma-ket kelgan ish-harakatni ifodalashda:

As-tu pris ce livre à la bibliothèque?

Oui, je l'ai pris. Je l'ai déjà lu et je l'ai rendu.

Bu kitobni kutubxonadan oldingmi ? Ha, men uni oldim.

Men uni o'qib chiqdim va uni kutubxonaga topshirdim.

☉ Gazeta va jurnal maqolalaridagi tarixiy va siyosiy faktlar hamda bo'lib o'tgan yagona voqealarni ifodalashda:

*Le 12 avril 1961 Y. Gagarine **a fait** son premier vol cosmique.*

1961 yil 12 aprel kuni Y. Gagarin birinchi marta kosmosga uchdi.

*P. Curie et Marie Curie **ont découvert** le radium.*

P. Yuri va Mariya Kyuri radiumni kashf etdilar



◆ **Imparfait de l'Indicatif**

(O'tgan zamon davom fe'li)

Imparfait sodda o'tgan zamon bo'lib, o'zbek tilidagi o'tgan zamon davom fe'liga mos keladi.

☉ **Imparfait** ning yasalishi.

Imparfait zamonini yasash uchun **Présent** da tuzlangan fe'larning birinchi shaxs ko'pligi olinib, undagi shaxs-son qo'shimchalari tushirib qoldiriladi va ular o'rniga **Imparfait** zamonining shaxs va son qo'shimchalari qo'shiladi.

Imparfait dagi shaxs va son qo'shimchalari hamma guruh fe'llari uchun bir xil bo'lib, ular quyidagichadir:

-ais, -ais, -ait, -ions, -iez, aient.

Imparfaitda

☉ **bâtir** (II g.) **qurmoq** fe'li

je **bâtiss-ais**

tu **bâtiss-ais**

il **bâtiss-ait**

elle **bâtiss-ait**

nous **bâtiss-ions**

vous **bâtiss-iez**

ils **bâtiss-aient**

elles **bâtiss-aient**

☉ **prendre** (III g.) **olmoq** fe'li

je pren-**ais**

tu pren-**ais**

il pren-**ait**

elle pren-**ait**

nous pren-**ions**

vous pren-**iez**

ils pren-**aient**

elles pren-**aient**

☉ **demander** (I g.) **so'ramoq** fe'li

je demand-**ais**

tu demand-**ais**

il demand-**ait**

elle demand-**ait**

nous demand-**ions**

vous demand-**iez**

ils demand-**aient**

elles demand-**aient**

☉ **être** (III g.) **bulmoq** fe'li

j'-**étais**

tu **étais**

il **était**

elle **était**

nous **étions**

vous étiez
ils étaient
elles étaient



◆ Imparfait ning qo'llanilishi

Imparfait quyidagi qollarda qo'llaniladi:

☺ Ish-harakatning yoki holatning o'tgan zamonda davom etib turganligini, davomiylikni ifodalash uchun:

Il étudiait le français. U fransuz tilini o'rganib yurardi.

Ils travaillaient aux champs. Ular dalada ishlar edi.

Il était assis près de la fenêtre. U deraza oldida o'tirar edi.

☺ Ish-harakatning o'tgan zamonda takrorlanib turganligini anglatish uchun. (Bunday holda ko'pincha **souvent, toujours, chaque fois, chaque jour, chaque année** kabi so'zlar ishtirok etadi):

D'habitude je me levait à 7 heures du matin. Odatda men soat 7 da turar edim.

☺ O'tgan zamonda ikki ish-harakatning bir vaqtda bajarilganligini ifodalash uchun: **Pendant que** les enfants **jouaient** dans la cour, la mère **lisait** une revue. Bolalar hovlida o'ynayotganlarida, onasi jurnal o'qir edi.

Ikki ish-harakatdan birining davom etganligini anglatishda Imparfait ishlatiladi: **Quand je suis entré** dans la chambre, mon frère cadet **dormait encore**. Xonaga kirganimda ukam vali uxlab yotardi.

☺ O'tgan voqealarni tasvirlashda qo'llaniladi: *Le ciel était bleu, le soleil brillait gaiment et le vent soufflait. C'était le printemps.* Havo musaffo edi, quyosh porlab turar edi, shamol esardi. Bu bavor fasli edi.

☺ Shart ergash gaplarda **si** bovllovchisidan keyin **Conditionnel présent** o'rniga **Imparfait** ishlatiladi: *Si tu étais plus attentif, tu ne ferais pas de fautes.* Diqqat-e'tiborliroq bo'lganingda edi, xato qilmagan bo'larding.



◆ Plus-que-parfait de l'Indicatif

(Uzoq o'tgan zamon)

Plus-que-parfait murakkab zamon bo'lib, ish-harakatning o'tgan zamondan avval bajarilganligini anglatadi. **Plus-que-parfait** ergash gaplarda qo'llanilsa, o'zbek tiliga ko'pincha o'tgan zamon sifatdoshi tarzida tarjima qilinadi. Sodda gaplarda esa uzoq o'tgan zamonga mos keladi. **Plus-que-parfait ning yasalishi**

☺ **Plus-que-parfait Imparfait** zamonida tuslangan **avoir** yoki **être** yordamchi fe'liga asosiy tuslanuvchi fe'lining Participe passé shaklini qo'shish yo'li bilan yasaladi:

☺ **Passer** (I g.) o'tmoq

J'avais **passé**

Tu avais **passé**

Il avait **passé**

Elle avait **passé**

☺ **choisir** (II g.) tanlamoq

Nous avions **passé**

Vous aviez **passé**

Ils avaient **passé**

Elles avaient **passé**

J'avais choisi	Nous avions choisi
Tu avais choisi	Vous aviez choisi
Il avait choisi	Ils avaient choisi
Elle avait choisi	Elles avaient choisi
☉ partir (III g.) jo'namoq	
J'étais parti	Nous étions partis(es)
Tu étais parti(e)	Vous étiez partis(es)
Il était parti	Ils étaient partis
Elle était partie	Elles étaient parties

☉ **se laver** turmoq (I g.) o'zlik fe'li
 Je m'étais **lavé(e)** Tu t'étais **lavé(e)**
 Il s'était **lavé** Elle s'était **lavée**
 Nous étions **lavé(e)s** Vous vous étiez **lavé(e)s**
 Ils s'étaient **lavés** Elles s'étaient **lavées**



◆ **Plus-que-parfait** ning qullanilishi

1. **Plus-que-parfait** bosh gapdagi ish-harakatga nisbatan ergash gapdagi ish-harakatning oldin tugallanganligini anglatadi:

Il a corrigé les fautes qu'il avait faites dans sa dictée. U o'z diktantida qilgan xatolarini tuzatdi.

2. **Plus-que-parfait** mustaqil gaplarda qo'llanilib, bo'lib o'tgan voqeadan avval bajarilgan ish-harakatni anglatadi:

Le peuple a triomphé, on avait longtemps lutté pour l'indépendance.

3. Shart ergash gaplarda **si** bovllovchisidan keyin **Conditionnel passé** o'rniga **Plus-que-parfait** ishlatiladi:

S'il avait reçu ce télégramme, il serait venu à la gare.



◆ **Passé antérieur**

Passé antérieur murakkab o'tgan zamon bo'lib, u o'zbek tiliga ko'pincha ravishdosh shakliga to'g'ri keladi.

☉ **Passé antérieur** zamonini yasash uchun *avoir* yoki *être* ko'makchi fe'li **Passé simple** da olinib, tuslanuvchi fe'ning **Participe passé** shakli qo'shiladi **Passé antérieur** ko'pincha *dès que, aussitôt que, quand, lorsque, à peine... que, après que* kabi bog'lovchi so'zlar bilan boshlangan payt ergash gaplarda ishlatiladi, bunday paytda bosh gapda **Passé simple** zamoni qo'llaniladi:

Dès qu'on eut téléphoné, il se leva et s'approcha de la table. Qo'ng'iroq chalinishi bilan, u o'rnidan turdi va stolning oldiga bordi..

☉ **passer** (I g.)
 J'eus **passé**
 Tu eus **passé**
 Il eut **passé**
 Elle eut **passé**

Nous eûmes **passé**
 Vous eûtes **passé**
 Ils eurent **passé**
 Elles eurent **passé**

☺ **choisir** (II g.)

J'eus *choisi*

Tu eus *choisi*

Il eut *choisi*

Elle eut *choisi*

Nous eûmes *choisi*

Vous eûtes *choisi*

Ils eurent *choisi*

Elles eurent *choisi*

☺ **sortir** (III g.)

Je fus *sorti(e)*

Tu fus *sorti(e)*

Il fut *sorti*

Elle fut *sortie*

Nous fûmes *sorti(e)s*

Vous fûtes *sorti(e)s*

Ils furent *sortis*

Elles furent *sorties*

☺ **se laver** (I g.)

Je me fus *lavé(e)*

Tu te fus *lavé(e)*

Il se fut *lavé*

Elle se fut *lavée*

Nous nous fûmes *lavé(e)s*

Vous vous fûtes *lavé(e)s*

Ils se furent *lavés*

Elles se furent *lavées*



◆ **Passé antérieur** ning qo'lanilishi

Passé antérieur tugallangan ish-harakatni ifodalash uchun yozma nutqda qo'llaniladi. **Passé antérieur** zamoni **Plus-que-parfait** kabi yuz bergan ikki ish-harakatdan birinng ikkinchisidan oldinroq bajarilganligini ifodalaydi.

☺ **Plus-que-parfait** oldinroq o'tgan ish-harakatni ifodalasa, **Passé antérieur** ketma-ket bo'lib o'tgan ish-harakatdan birining ikkinchisidan oldinroq bajarilganligini anglatadi.

Lorsque nous fumes arrivés à l'école, nous entrames dans la classe. Maktabga kelishimiz bilan, sinfga kirdik.

® **Eslatma:** à peine ... que iborasidan keyin gapdagi so'z tartibi ters bo'ladi:

A peine fut-il parti que son ami arriva. U ketgan hamono, o'rtog'i kelib qoldi.



◆ **Futur simple**

(Kelasi zamon)

Futur simple sodda kelasi zamon bo'lib, kelajakda bajariladigan ish-harakatni ifodalaydi. Bu zamon o'zbek tilidagi kelasi zamon aniq fe'liga to'g'ri keladi: *Je vous parlerai de mon voyage. Men sizlarga sayohatim haqida gapirib beraman.*

Dans une semaine ils partiront pour Paris. Bir vaftadan keyin ular Parijga jo'naydilar.



◆ **Futur simple** ning yasalishi

Futur simple zamoni fe'lning noaniq shakliga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi: **-ai; as; -a; -ons; -ez; ont.**

☉ **Parler** (I g.) gapirmoq

Je parlerai	Nous parlerons
Tu parleras	Vous parlerez
Il parlera	Ils parleront
Elle parlera	Elles parleront



◆ **Futur simple** quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Ish-harakatning so'zlanib turgan paytga nisbatan keyin bajarilishini ifodalash uchun. **Dans deux ans il sera professeur. Ikki yildan keyin u o'qituvchi bo'ladi. Demain nous passerons un examen. Ertaga biz imtihon topshiramiz.**

2. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap **Futur simple** da kelsa, shart bog'lovchisi **si** dan keyin **Futur simple** o'rniga **Présent** - hozirgi zamon qo'llaniladi.

Si nous avons le temps, nous irons la voir.

Vaqt bo'lsa, uni ko'rgani boramiz.

Futur simple yana boshqa ma'nolarni ham ifodalashi mumkin:

☉ shubha ma'nosini ifodalaydi:

Aujourd'hui elle n'est pas venue à l'institut, elle sera malade.

U bugun institutga kelmadi, ehtimol kasaldir.

☉ iltimos-buyruq ma'nolarini ifodalaydi:

Vous irez à la bibliothèque, vous prendrez les livres nécessaires et vous préparerez un rapport sur ce thème.

Kutubxonaga borasiz, kerakli kitoblarni olasiz va mazkur tema bo'yicha ma'ruza tayyorlaysiz.

☉ **bâtir** (II g.)

je bâtirai	nous bâtirons
tu bâtiras	vous bâtirez
il bâtira	ils bâtiront
elle bâatira	elles bâtiront

☉ **passer** (I g.)

je passerai	nous passerons
tu passeras	vous passerez
il passera	ils passeront
elle passera	elles passeront

☉ **mettre** (III g.)

je mettrai	nous mettrons
tu mettras	vous mettrez
il mettra	ils mettront

elle mettra elles mettront

☉ **se laver** (I g.) o'zlik fe'li
je me laverai nous nous laverons
tu te laveras vous vous laverez
il se lavera ils se laveront
elle se lavera elles se laveront



◆ **Futur dans le passé**

(O'tgan zamondagi kelasi zamon)

Futur dans le passé zamoni o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatga nisbatan kelasi zamonda bo'ladigan ish-harakatni anglatadi.

Nous avons appris qu'il reviendrait demain.

Futur dans le passé zamonining yasalishi

☉ **Futur dans le passé** zamonini yasash uchun fe'llarning noaniq shakli (Infinitif) olinib, ularga **Imparfait** zamonining shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi.

☉ **Venir** (III g.)

je viendrai	nous viendrons
tu viendras	vous viendrez
il viendra	ils viendront
elle viendra	elles viendront

☉ **Devoir** (III g.)

je devrai	nous devons
tu devras	vous devrez
il devra	ils devront
elle devra	elles devront

☉ **Choisir** (III g.)

je choisirais	nous choisirions
tu choisirais	vous choisiriez
il choisirait	ils choisiraient
elle choisirait	elles choisiraient

☉ **Arriver** (I g.)

j' arriverais	nous arriverions
tu arriverais	vous arriveriez
il arriverait	ils arriveraient
elle arriverait	elles arriveraient



◆ **Futur antérieur**

(Oldingi kelasi zamon)

Futur antérieur murakkab kelasi zamon bo'lib, u nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan ikki ish-harakatdan birining ikkinchisidan oldinroq sodir bo'lishini anglatadi. *Dans une heure, dans une semaine, bientôt* kabi vaqt ifodalovchi so'zlar qatnashgan gaplarda **Futur antérieur** kelasi zamoni ham ifodalashi mumkin.

☉ **Futur antérieur** ning yasalishi

Futur antérieur zamonini vosil qilish uchun *avoir* yoki *être* ko'makchi fe'li **Futur simple** da olinib, unga asosiy tuslanuvchi fe'lining **Participe passé** shakli qo'shiladi.

☉ **Venir** (III g.)

Je serai venu	nous serons venus
tu seras venu	vous serez venus
il sera venu	ils seront venus
elle sera venue	elles seront venues

☉ **Devoir** (III g.)

j'aurai du	nous aurons du
tu auras du	vous aurez du
il aura du	ils auront du
elle aura du	elles auront du



◆ **Futur antérieur** quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Payt holini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi mustaqil gaplarda:

Demain, à cette heure, il sera arrivé à Tachkent. Ertaga, shu paytda u Toshkentga keladi.

2. *Dès que, aussitôt que, lorsque, quand, à peine ... que, après que* kabi bog'lovchilar bilan kiritilgan payt ergash gaplarda;

Lorsque j'aurai lu ce livre, je te le rendrai. Bu kitobni o'qib bo'lgach, sen uni qaytarib beraman.



◆ **Temps immédiats**

Futur immédiat

(Yaqin kelasi zamon).

Futur immédiat (proche) zamoni **Présent** da tuslangan *aller* fe'liga asosiy tuslanuvchi fe'lining noaniq shaklini qo'shish bilan yasaladi. Bunda *aller* fe'li ko'makchi fe'l sifatida qaraladi.



◆ Fe'llarning **Futur immédiat** (proche) zamonida tuslanishi

passer	finir	mettre
je vais passer	je vais finir	je vais mettre
tu vas passer	tu vas finir	tu vas mettre
il va passer	il va finir	il va mettre
elle va passer	elle va finir	elle va mettre
nous allons passer	nous allons finir	nous allons mettre
vous allez passer	vous allez finir	vous allez mettre

ils vont passer ils vont finir ils vont mettre
elles vont passer elles vont finir elles vont mettre

☉ **Futur immédiat** hozirgi zamon bilan bog'liq bo'lgan yaqin kelasi zamoni ifodalaydi: **Attendez-le, il va venir. Uni kuting, u vozir keladi.**

Bu zamon hozirgi zamon bilan bevosita bog'langan. Yaqin kelasi zamoni ifodalaydi. O'zbek tilida hozirgi yaqin kelasi zamon fe'l ma'nosi tarzida tarjima qilinadi va *hozir, endi, endigina* ravishlari ifodalanadi:

Je vais vous expliquer cela - Buni men sizga hozir tushuntiraman.

Qu'allez-vous faire après les cours? Siz (dars) ma'ruzadan keyin nima qilmoqchi bo'layapsiz?

☉ **Futur immédiat** hozirgi zamonda tuslangan **aller** fe'lidan so'ng asosiy fe'lning infinitivini qo'llash yordamida shakllanadi. Fe'l to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh infinitifdan oldin qo'yiladi: *Je vais lui téléphoner.*

® **Eslatma:** Hozirgi fransuz tilida (asosan so'zlashuv nutqida) **Futur immédiat** tez-tez oddiy kelasi zamon ma'nosida ham qo'llaniladi.

Fais attention, tu vas tomber. Ehtiyot bo'l, yiqilasan.



◆ **Passé immédiat**

(Yaqin o'tgan zamon)

☉ **Passé immédiat** (récent) hozirgina bo'lib o'tgan ish-harakatni ifodalaydi. Bu zamon o'zbek tilida *hozirgina, hozir* ravishlari bilan o'tgan zamon fe'l shakli va ma'nolariga to'g'ri keladi. *Je viens de rencontrer votre frère.* Men hozirgina akangizni uchratdim. *Nous venons d'acheter une maison de campagne* - Biz hozirgina (yaqinda) qishloqdan hovli sotib oldik.

☉ **Passé immédiat venir** fe'lining hozirgi zamonda tuslangan shakli va **de** predlogidan keyin tuslanayotgan fe'lning infinitivini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Fe'l to'ldiruvchi vazifasida kelgan (to'ldiruvchi yoki aniqlovchi) olmoshlar **passé immédiat** zamonida infinitifdan oldin (ko'makchi fe'l + de predlogidan keyin) ifodalanadi.

Il vient de leur téléphoner - *Nous venons de nous lever.*

Passé immédiat hozirgi zamonga bog'liq bo'lgan yaqin o'tgan zamoni ifodalaydi.

Il vient de sortir de la classe. U sinfdan hozirgina chiqib ketdi.

☉ **Passer**

je viens de **passer**
tu viens de **passer**
il vient de **passer**
elle vient de **passer**

nous venons de **passer**
vous venez de **passer**
ils viennent de **passer**
elles viennent de **passer**

☉ **Se lever**

je viens de **me lever**
tu viens de **te lever**
il vient de **se lever**

nous venons de **nous lever**
vous venez de **vous lever**
ils viennent de **se lever**

elle vient de *se lever*

elles viennent de *se lever*



◆ **Futur dans le passé** – O'tgan kelasi zamon.

Futur dans le passé fe'l shakli ish-harakatning bo'lib o'tgan, ammo kelasi zamon munosabatini ifodalaganlik ma'nosini ifodalaydi. I va II guruh fe'llari to'g'ridan-to'g'ri infinitivda olinadi, III guruh fe'llarini esa **Futur dans le passé** zamonida tushlash uchun tuslanayotgan fe'lning **Futur simple** o'zagi qabul qilinadi va **Imparfait** qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi:

☉ **Mettre** (III guruh)

Je mettrais nous mettrions

tu mettrais vous mettriez

il mettrait ils mettraient

elle mettrait elles mettraient



◆ **Futur dans le passé** ning qo'lanilishi

Futur dans le passé zamonlar moslashuviga ko'ra ergash gaplarda qo'llanilib, o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatga nisbatan kelajakda bajariladigan ish-harakatni ifodalaydi:

Il a dit qu'il irait à la bibliothèque demain.

U ertaga kutubxonaga borishini aytdi.

Ils nous ont demandé où nous passerions cet été.

Ular bizdan bu yozni vayerda o'tkazishimizni so'radilar.



◆ **Futur immédiat dans le passé**

(O'tgan zamondagi yaqin kelasi zamon).

Futur immédiat dans le passé zamonini hosil qilish uchun **aller** fe'li yordamchi fe'l sifatida **Imparfait de l'indicatif**da tuslanadi va asosiy tuslanuvchi fe'lning noaniq shakli qo'shib olinadi.

